



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 2-dekabr, № 251 (9146)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH VA TADBIRKORLARGA QULAY SHAROITLAR YARATISHGA QARATILGAN REJALAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 1-dekabr kuni eksport salohiyatini oshirish va tadbirkorlarning davlat xizmatlaridan foydalanishini soddalashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

O'zbekiston 2030-yilga qadar eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilib qo'ygan. Mazkur ko'rsatkichga erishish uchun an'anaviy bozorlar bilan cheklanmasdan yuqori marjali yangi bozorlarga chiqish zarur.

Bu borada tashqi bozorlardagi yetakchi iste'mol segmentlari va yuqori talabga ega mahsulotlar bo'yicha chuqur tahlil olib borildi. Natijada qurilish materiallari, yengil sanoat, elektrotexnika, oziq-ovqat, maishiy kimyo, mashinasozlik va metallarga oid yo'nalishlarda eksportni yanada oshirish uchun mamlakatimizda katta zaxira hamda imkoniyat borligi aniqlandi.

Shu munosabat bilan taqdimotda istiqbolli bozor hisoblangan mamlakatlar bilan imtiyozli savdoni yo'lga qo'yish, savdo-iqtisodiy munosabatlarni faollashtirib, eksport-import hajmi o'sishiga mos ravishda chegara o'tkazish punktlari infratuzilmasi va quvvatini kengaytirish zarurligi qayd etildi.

Mutasaddilar mahsulotlarimizning tashqi bozorlarda egallagan o'рни, talab yuqori bo'lgan tovar turlari, xorijiy sheriklar bilan amalga oshirilayotgan hamkorlik loyihalari hamda eksportni diversifikatsiya qilish bo'yicha bajarilayotgan ishlar yuzasidan axborot berdi. Mavjud salohiyatdan to'liq foydalanish, yangi bozorlarni ochish va tashqi savdo mexanizmlarini soddalashtirish topshirildi.

Bugungi kunda 81 ta davlat idorasi tomonidan tadbirkorlarga 739 turdagi xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Lekin 576 turdagi xizmatlar tarqoq holda ko'rsatilgani uchun tadbirkorlar hujjat yig'ib, idorama-idora sarson bo'layotgani ko'rsatib o'tildi. Masalan, go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun 17 ta bosqichdan o'tish, 10 ta idoraga borish kerak.

Shu bilan birga, buxgalteriya, soliq, eksport va sertifikatlash bo'yicha konsalting xizmati ko'rsatadigan yagona xususiy servis maydoni mavjud emas.

Bunday xizmatlarni banklar, sug'urta kompaniyalari, birja, brokerlar va logistika operatorlari, biznes ta'limi hamda trening dasturlari bilan integratsiya qilish mumkin.

Taqdimotda tadbirkorlar uchun barcha davlat va xususiy xizmatlarni bir joyga jamlaydigan "Biznes hamroh" markazlarini ochish taklif qilindi.

Rejaga ko'ra Savdo-sanoat palatasi huzurida tashkil etiladigan markazlarda barcha davlat va xususiy xizmatlarni "yagona darcha" tamoyili asosida bir joyda, yagona elektron platforma orqali ko'rsatish yo'lga qo'yiladi. Tadbirkorlarning murojaatlariga tunu kun javob beradigan "koll-markaz" ham tashkil etiladi.

Prezidentimiz taklifni ma'qullab, markaz tadbirkorlik subyektini tashkil etishdan tortib faoliyatini yo'lga qo'yish, tayyor mahsulotlarni sotish va eksport qilishgacha bo'lgan barcha sohalarni qamrab olishi zarurligini ta'kidladi. Mutasaddilarga bu borada tegishli topshiriqlar berildi.

IQTISODIYOT TARMOQLARI VA IJTIMOY SOHADA SUN'YI INTELLEKT LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH BORASIDAGI YANGI YONDASHUVLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va kosmos sohalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarining oktabr oyida qabul qilingan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni va "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan yurtimizda bu borada zarur infratuzilma barpo etish hamda kadrlar tayyorlash uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Jumladan, 2030-yilgacha strategiya tasdiqlanib, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida tegishli markaz ochildi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish uchun zarur hisoblash infratuzilmasi barpo qilinmoqda. Jumladan, AQSHning "Nvidia" kompaniyasi bilan hamkorlikda super kompyuter klasterini ishga tushirish loyihasi amalga oshirilmoqda. Tibbiyot sohasida sun'iy intellekt bo'yicha 5 ta loyiha joriy qilinmoqda. Xususan, insult, ko'krak saratonini sun'iy intellekt yordamida aniqlash

orqali diagnostika vaqti 80 foizga tejaliib, hayot uchun xavfli holatlar barvaqt aniqlanmoqda.

Prezidentimiz bu yetarli emasligi, sun'iy intellekt yordamidagi diagnostikani ishlatish mumkin bo'lgan kasalliklar turini yanada kengaytirish zarurligini qayd etdi. Shu munosabat bilan xorijiy hamkorlar bilan birgalikda respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarida jigar, o'pka va prostata bezi saratoni, infarkt hamda murakkab suyak sinishlarini diagnostika qilishda tibbiy suratlarni sun'iy intellekt yordamida tahlil qilish tizimlarini joriy etish rejalashtirilgan.

Kelgusi o'quv yilidan maktab, texnikum va oliyoghlarda o'quvchi va talabalarga sun'iy intellektni o'qitish boshlanadi. Buning uchun informatika o'qituvchilari tayyorlanmoqda. Lekin faqat ularni emas, butun maktab jamoasini sun'iy intellektdan foydalanishga o'rgatib, o'qituvchilarning yuklamasini

kamaytirish kerakligi ko'rsatib o'tildi. Shunda o'qituvchida o'z ustida ishlashga ko'proq vaqt qoladi, deya ta'kidlandi yig'ilishda.

Taqdimotda bu boradagi yangi yondashuvlar ko'rib chiqildi.

Jumladan, maktab ta'limi uchun sun'iy intellektga asoslangan platformani joriy qilish taklif qilindi. Bunda o'qituvchining virtual yordamchisi ishlab chiqiladi va platformaga integratsiya qilinadi. Ushbu yechim o'qituvchilarga mavzuga doir ma'ruza matnlari, taqdimotlar, testlar, dars rejalarini tuzish, imtihon jarayonlarini nazorat qilishda ko'maklashadi.

Yig'ilishda hokimlarning raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt bo'yicha maslahatchilarining malakasini oshirish dasturi haqida axborot berildi.

Transport sohasida ham sun'iy intellekt loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Jumladan, sun'iy intellekt yordamida yo'llardagi qoidabuzarliklarni avtomatik

aniqlash, vagonlar texnik holatini monitoring qilish orqali temir yo'lda avariyaalar xavfini kamaytirish bo'yicha takliflar taqdimot qilindi.

Bundan tashqari, kosmik texnologiyalar bo'yicha yangi tashabbuslar ishlab chiqilgan. "Samarqand-2028" sun'iy yo'ldoshini ishlab chiqish ishlarining borishi ko'rib chiqildi. Yerni masofaviy zondlashga mo'ljallangan mazkur yo'ldosh uchun sun'iy intellekt moduli ishlab chiqiladi. Yo'ldosh olgan suratlarni havo sifatini birlamchi baholash, qishloq xo'jaligi ekinlari va o'rmonlarni monitoring qilishda qo'llash mumkin bo'ladi.

Taqdimot yakunida davlatimiz rahbari ko'rib chiqilgan loyihalar ijrosini jadallashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada foydalanishni kengaytirish yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

MUHOKAMADA — EKOLOGIK BARQARORLIK, QISH MAVSUMIGA TAYYORGARLIK VA YONG'IN XAVFSIZLIGI MASALALARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev huzurida yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda ekologik barqarorlik, shu jumladan, chiqindilarni qayta ishlash masalalari atroflicha ko'rib chiqildi, shuningdek, mutasaddilarning qishga tayyorlik yuzasidan hisobotlari tinglandi.

Avvalo, Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha maxsus komissiyaning hisoboti tinglandi. Havo ifloslanishiga qarshi ko'rilayotgan, ifloslanish manbalarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'nalishida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, oxirgi kunlarda mamlakatimiz hududi bo'ylab sovuq antitsiklon ta'siri kuchayib bormoqda. Natijada havo bosimi oshib, harorat pasaymoqda, inversiya hodisalari kuchaymoqda. Bunday sharoitda havodagi mayda zarrachalar yuqoriga ko'tarilmay, pastki qatlamlarda to'planib qolmoqda. Meteorologik sharoitlar tufayli havoning tabiiy tozalanish sur'ati sekinlashmoqda.

So'nggi kunlarda havoni ifloslantirayotgan manbalarni aniqlash va ularning faoliyatiga chek qo'yish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida axborot berildi. Issixonalar, qurilish maydonlari, avtotransport vositalari va noqonuniy faoliyat yurituvchi obyektlar yuzasidan o'tkazilgan tekshiruvlar, shahar bo'ylab ko'chalarni namlash, ariqlarni tozalash, favvoralarni ishga tuzatish kabi barqarorlashtirish tadbirlari shular jumlasidan. Kuchaytirilgan tartibda reydlar va profilaktika ishlari olib borilmoqda.

Prezidentimiz mazkur choralarni nafaqat poytaxtda, balki hududlarda ham tizimli davom ettirish, aniqlangan qonunbuzarliklarni tekzor bartaraf etish, havoga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni qat'iy nazorat ostiga olishni topshirdi.

Maishiy chiqindilardan elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha 933 million dollarlik loyihalar 6 ta hududda — Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida boshlangan, ammo boshqa viloyatlarda bu borada jiddiy harakat kuzatilmayapti. Boshlangan loyihalarda ham investorlarni infratuzilma — yo'l, elektr, suv bilan ta'minlash ishlari

talab darajasida emas.

Viloyatlar hokimliklari va Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasiga kamchiliklarni bartaraf etib, kelgusi yilda qolgan hududlarda ham shunday loyihalarni boshlash topshirildi.

2030-yilgacha maishiy chiqindi poligonlarini 50 foizga qisqartirish belgilangan. So'nggi yillarda 47 ta poligon faoliyati tugatilib, rekultivatsiya qilindi, natijada 243 gektar yer tabiatga qaytarildi.

Lekin hozirda ishlayotgan 132 ta poligonning aksariyatida haligacha himoya devorlari, "yashil belbog'", suv ta'minoti va ekologik xavfsizlik inshootlari tashkil etilmagani ko'rsatib o'tildi.

— Bu atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatyapti va aholi e'tirozlariga sabab bo'lyapti. Shu bois maishiy chiqindi poligonlarini ekologik xavfsiz hududga aylantirish zarur. Birinchi navbatda, odamlarning sohadan roziligiga erishishimiz kerak. Bu masalaga faqat chiqindini boshqarish emas, balki sanoat, energetika, ekologik madaniyat bilan uzviy bog'liq yo'nalish sifatida yondashish lozim, — dedi davlatimiz rahbari.

Mutasaddilarga rekultivatsiya qilingan 47 ta poligon yerini qayta foydalanishga kiritib, ularda "yashil maydon"lar barpo qilish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish kerakligi ko'rsatib o'tildi. Mavjud poligonlarning barchasi atrofida "yashil belbog'" yaratish, daraxt va ko'chat ekish ishlarini poligonlarning yarmida bahor mavsumida, qolgan yarmida kuz mavsumida yakunlash vazifasi qo'yildi.

2026-yildan bu ishlarga respublika byudjetidan har yili kamida 150 milliard so'm ajratib borilishi belgilandi.

Oxirgi ikki yilda avvallari qayta ishlanmagan sanoat va xavfli chiqindilarni qayta ishlash darajasi 4,5 foizga olib chiqildi. Mazkur ko'rsatkich kamligi qayd etilib, sanoat va xavfli chiqindilar hosil bo'layotgan hamda saqlanayotgan joylarni xatlovdan o'tkazib, ularni qayta ishlash hamda utilitatsiya qilish bo'yicha kamida 1 tadan loyihani boshlash zarurligi ta'kidlandi. Xavfli chiqindilarni nazorat qilish bo'yicha yagona axborot-monitoring platformasini ishga tushirish topshirildi.

Ta'kidlanganidek, imtiyozli shartlarda suyuqlashtirilgan gaz

yetkazib berishda kamchiliklar saqlanib qolmoqda, talon-toroj holatlari uchramoqda. "Hududgazta'minot" tizimiga bu holatlarga chek qo'yish, hududma-hudud yurib aholining muammolarini hal etish topshirildi. Eskirgan elektr tarmoqlari va ortiqcha yuklamada ishlayotgan transformatorlarni xatlovdan o'tkazib, ularning barqaror ishlashini ta'minlash vazifasi qo'yildi.

Shuningdek, 1800 kilometrlik elektr tarmoqlarida ta'mirlash ishlari sifatsiz bajarilgani aniqlangan. Bosh prokuraturaga mazkur holatlarni o'rganish va qonun ustuvorligini ta'minlash, "Energoinspeksiya"ga esa nazorat ishlari yangicha yondashuv asosida tashkil qilib, favqulodda tartibda ishlashga o'tish topshirildi.

Qish mavsumida energiya resurslari aholiga uzluksiz yetkazib berilishi shartli alohida ta'kidlandi.

Yig'ilishda yong'in xavfsizligi masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Mamlakatimizda 44 mingdan ziyod ko'p qavatli binolarda yong'in xavfsizligi holatini to'liq o'rganish, favqulodda vaziyatlar tizimi bunday xavf-xatarlarga qarshi harakat qilishga shay turishi zarurligi ta'kidlandi.

Binolarning tashqi devorlarida kuchli yonuvchan materiallarni qo'llashni taqiqlovchi qat'iy talablarni qonun hujjatlariga kiritish vaqti kelgani ta'kidlandi. Shu munosabat bilan ko'p qavatli uylarda qurilish normalari va yong'in xavfsizligi qoidalarini xalqaro tajribaga moslash hamda mas'ul rahbarlar javobgarligini kuchaytirish bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqish topshirildi.

Kommunal xizmatlar ishini muvofiqlashtirish va favqulodda vaziyatlarda tekzor harakat qilish tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi. O'tgan mavsumda poytaxtda to'plangan tajriba asosida respublikaning boshqa hududlari kesimida ishchi guruhlar tashkil etish, barcha kommunal xizmatlar va boshqaruv servis kompaniyalarini FVV dispetcherlik tizimiga bog'lash va xonadonbay profilaktika ishlari kuchaytirish vazifasi qo'yildi.

O'ZA.

8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

ASOSIY MAQSAD SUDNI TOM MA'NODA «ADOLAT QO'RG'ONI»GA AYLANTIRISHDAN IBORAT

"Konstitutsiya — inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi".

Bu yil Bosh qomusimiz qabul qilinganining 33 yillik bayrami ana shunday bosh g'oya negizida o'tkazilayotgani bejiz emas. Yangi O'zbekiston strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlarini o'zida aks ettirgan yangi tahrirdagi Konstitutsiya fuqarolarimiz, jamiyatimiz hayotida naqadar yuksak ahamiyatga ega ekanini amalda namoyon etmoqda.

Asosiy Qonunimizda belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat hamda birlamchi kabi ezgu g'oyalar yurtimiz hayotining barcha sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlardagi ifodasini amaliy misollar — shiddatli yangilanishlar samaralari talqinida yaqqol ko'rsatib berilyapti.

O'zgarishlarning muhim yo'nalishi hisoblangan sud-huquq tizimidagi strategik islohotlar samarasini ta'minlashda, albatta,

Konstitutsiyamizning norma va prinsiplari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bosh qomusimizga sud hokimiyatiga bag'ishlangan alohida XXIII bob kiritilgan bo'lib, uning 130-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadigan sud hokimiyatining Konstitutsiya darajasida institutsional mexanizmlari belgilab berildi.



Ma'lumki, TURKSOY turkiy xalqlarning bir-biriga bo'lgan turkiy dunyoda yanada kengroq ilgari surish imkoniga ega bo'ldi. Shu orqali o'zbek madaniyati, qadriyatlari, ko'hna va hamisha navqiron obidalari, tarixi va istiqboldagi orzu-intilishlari jahon miqyosida targ'ib ham qilinmoqda.

TURKSOY Doimiy kengashi qarori bilan har yili turkiy tilli davlatlardagi shaharlardan biri "Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti" sifatida e'lon qilinadi.

2026-yilda "Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti"

Bunday maqomga ega bo'lgan shaharda turkiy davlatlar bilan hamkorlikda qator madaniy tadbirlar, festivallar, ilmiy anjumanlar, uchrashuvlar tashkil etiladi. Bu orqali milliy madaniyat xalqaro miqyosda keng targ'ib qilinadi. Bunday tadbirlar sayyohlar oqimini oshirishga ham hissa qo'shadi.

Quvonarlisi, TURKSOY Doimiy kengashining 42-yig'ilishida Andijon shahri 2026-yilda "Turkiy dunyoning

madaniyat poytaxti" deb e'lon qilindi. Bu xushxabar yig'ilish ishti-rokchilari tomonidan olqishlar bilan kutib olindi.

Tadbirlarning tantanali yopilish marosimida Andijon shahri hokimligiga maxsus sertifikat topshirildi.

Doimiy kengash yig'ilishi yakunida kun tartibida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan qaror qabul qilinib, tegishli hujjatlar imzolandi.

"Xalq so'zi".

Oʻzbekiston – Kanada: PARLAMENTLARARO HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

Ilgari xabar berganimizdek, Oliy Majlis Senati Raisining birinchi oʻrinbosari Sodiq Safoyev boshchiligidagi Oʻzbekiston delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Kanadada boʻlib, Ottava va Toronto shaharlarida qator uchrashuvlar oʻtkazdi.

Uchrashuv

Kanada parlamenti binosida “Oʻzbekiston kunlari” tadbiri hamda “Yangi Oʻzbekiston: Shavkat Mirziyoyev yoʻli” kitobining taqdimoti boʻlib oʻtdi. Unda parlament aʼzolari, davlat idoralari, yirik kompaniyalar va biznes uyushmalari vakillari, ekspertlar va

jurnalistlardan iborat 80 dan ortiq ishtirokchilar qatnashdi.

Kanadalik siyosiy doira vakillari Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlarni yuksak baholadi. Keyingi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning ochiq va konstruktiv tashqi siyosati tufayli ikki davlat oʻrtasida hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani alohida taʼkidlandi.

Uchrashuvlarda ikki davlat elchixonalarini tashkil etish jarayonini tezlashtirish masalasi ham muhokama qilindi. Shuningdek, 2026-yilda Samarqandda birinchi “Oʻzbekiston – Kanada” parlament forumini uyushtirish taklifi qoʻllab-quvvatlandi. Kanada parlamenti Senatida esa Oʻzbekistonda “Kanada kuni”ni oʻtkazish taklifi ilgari surildi.

Shu bilan birga, delegatsiya Kanada parlamenti Senati Spikeri Raymond Ganye va Jamoalar palatasi Spikeri Frensis Skarpaledja bilan ham muloqot olib bordi.

R. Ganye Oʻzbekistondagi

islohotlar haqida oʻzining ijobiy fikrlarini bildirib, Ottavada Oʻzbekiston elchixonasi ochilishini toʻliq qoʻllab-quvvatladi. F. Skarpaledja esa ikki parlament oʻrtasidagi aloqalar faollashib borayotgani, ayniqsa, Samarqandda oʻtkazilishi rejalashtirilayotgan forumda Kanada tadbirkorlari delegatsiyasining ishtiroki muhimligini taʼkidladi.

Shuningdek, delegatsiya aʼzolari parlament “Doʻstlik guruhi” raisi Ziad Abuoltaif va aʼzolar bilan uchrashuvda migratsiya, iqtisodiyot va madaniy aloqalar masalalarini muhokama qildi. Ushbu mamlakatda yashayotgan 60

mingdan ortiq oʻzbek diasporasining ijobiy hissassi alohida qayd etildi. Kanada sogʻliqni saqlash tizimida tibbiyot xodimlariga ehtiyoj yuqori boʻlib, bu borada Alberta va Ontario provinsiyalari bilan muzokaralar olib borilayotgani taʼkidlandi.

Kanada parlamenti yuqori palatasi aʼzolari bilan boʻlib oʻtgan uchrashuvlarda Oʻzbekistonda jamoat xavfsizligi, shaharsozlik va diniy bagʻrikenglik borasidagi islohotlar yuksak baholandi, shuningdek, mamlakatimizning investitsion ochiqdigi kanadalik tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratgani qayd etildi.

“Xalq soʻzi”.



XORIJDA QIYIN VAZIYATGA TUSHGAN AYOLLARGA HUQUQIY YORDAM KOʻRSATILMOQDA

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasining vazirlik hamda idoralar vakillari ishtirokida majlisi oʻtkazildi.

Yigʻilish

Unda Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlarda ogʻir vaziyatga tushgan oʻzbek ayollarining huquq hamda manfaatlarini himoya qilish, ularni huquqiy qoʻllab-quvvatlash masalalari atroflicha muhokama etildi.

Taʼkidlanganidek, Migratsiya jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan xorijda muammoga duch kelgan xotin-qizlar uchun advokatlik va yuridik xizmat xarajatlarini qoplab berish tizimi yoʻlga qoʻyilgan.

Hukumatning tegishli qarori bilan mehnat muhojirlarining huquqlari buzilgan hollarda ularni qonuniy himoya qilish imkoniyatlari yanada mustahkamlangani qayd etildi.

Majlis davomida xorijdagi fuqarolarni himoya qilishda amalga oshirilayotgan amaliy ishlar haqida ham maʼlumot berildi.

Xususan, 2,1 mingdan ziyod fuqarolarga hujjat rasmiylashtirish va jazoni oʻtash muassasalaridan qaytarishda huquqiy yordam koʻrsatilgani, shuningdek, 15 ta davlatdan 1,3 ming fuqaro yurtimizga qaytarilgani taʼkidlandi. Mazkur jarayonda xotin-qizlar va bolalar masalasiga alohida eʼtibor qaratilgani, umumiy hisobda 654 nafar ayol va 438 nafar bolaning vatonga qaytarilishi Oʻzbekistonning muhim gumanitar tashabbuslaridan biri sifatida eʼtirof etildi.

Koreya Respublikasida oʻzbek ayollarini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslarga toʻxtali oʻtildi.

Jumladan, “Opa-singillar” jamoatchilik uyushmasi faoliyati yoʻlga qoʻyilgani, ular bilan birgalikda targʻibot tadbirlari olib borilgani va Kvanju ayollar instituti oʻrtasida memorandum imzolangani muhim hamkorlik yoʻnalishlaridan biri sifatida qayd etildi.

Shu bilan birga, mahallalarda aholi, yoshlar va xotin-qizlar oʻrtasida mehnat migratsiyasi qonunchiligi, chet elda ishlash shartlari, nikoh munosabatlariga oid huquqiy talablar boʻyicha keng qamrovli tushuntirish ishlari olib borilayotgani bildirildi. Bu esa aholini noqonuniy migratsiya xavflaridan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etayotgani taʼkidlandi.

Oʻz navbatida, xotin-qizlar bandligini taʼminlash boʻyicha amalga oshirilayotgan dasturlar ijrosi borasidagi ishlar ustidan samarali parlament nazorati olib borilayotgani qayd etildi.

Shundan kelib chiqib, 2025-yilning ikkinchi yarim yiligidagi xotin-qizlar bandligini taʼminlashga qaratilgan rejalar ijrosi koʻrib chiqildi.

Majlis soʻngida yangi ish oʻrinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va kambagʻallikni qisqartirish yuzasidan taʼsirchan choralar koʻrish boʻyicha vazifalar belgilab olindi.

“Xalq soʻzi”.

DAVLAT VA JAMIYAT OʻRTASIDAGI MUHIM KOʻPRIK

“Fuqarolik jamiyati haftaligi” doirasida Oliy Majlis Senatida navbatdagi uchrashuv oʻtkazildi.

Muloqot

Unda Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish boʻyicha qonunchilikdagi oʻzgartirishlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining millatlararo totuvlik, bagʻrikenglik va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdagi oʻrni yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida ham davlat boshqaruvini xalqqa xizmat qilishni taʼminlashga yoʻnaltirish, jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida belgilab qoʻyilgan. Mamlakat tarixida ilk marta 2021 – 2025-yillarga moʻljallangan Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi ham bu boradagi islohotlarning izchil davom etayotganidan dalolat berib turibdi.

Tadbirda fuqarolik jamiyati institutlarining millatlararo totuvlik va bagʻrikenglikni mustahkamlashdagi oʻrni alohida qayd etildi. Savol-javoblar jarayonida NNT faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, jamiyatda fuqarolik faolligini oshirish va jamoaviy hamkorlikni kuchaytirishga oid takliflar bildirildi.

“Xalq soʻzi”.

Jarayon

MDH PA kuzatuvchilari Qirgʻiziston Markaziy saylov komissiyasi raisi Temirlan Shaynazarov bilan uchrashuv oʻtkazdi. Suhbat chogʻida MDH PA ekspertlari tomonidan mamlakatdagi saylov qonunchiligining oʻrganilgan natijalari boʻyicha tayyorlangan tahliliy hisobot taqdim qilindi.

Maʼlumki, parlamentga muddatidan ilgari deputatlar saylovida 467 nafar nomzod qatnashdi. Parlament deputatlari saylovini oʻtkazish uchun 30 ta koʻp mandatli saylov okrugini tuzilib, ularning har birida majoritar tizim boʻyicha uchtdan deputat saylandi. Bunda har bir saylov okrugidagi uchta oʻrindan hech boʻlmaganda bittasini ayollar egallashi nazarda tutilgan. Chunki parlamentda kamida 30 ta deputatlik mandati ayol deputatlarga tegishiligini

qonunchilik ham kafolatlaydi.

Uchrashuvda saylovchilar ovoz berish jarayonlariga keng jalb etilishi, aholiga qulay sharoit yaratish maqsadida xorijdagi saylov uchastkalari soni oshirilgani, kam faol hududlarda alohida eʼtibor qaratilgani aytiladi.

Shu bilan birga, qonunbuzarliklarning oldini olish boʻyicha nazorat mexanizmlari kuchaytirilgani maʼlum qilindi.

Mamlakatimiz parlamenti aʼzosi MDH PA kuzatuvchilari bilan birga Bishkek shahridagi “Gʻalaba” memorialiga gul qoʻyish marosimida ham ishtirok etdi. Tadbir qatnashchilari Ikkinchi jahon urushi qahramonlari xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

MDH mamlakatlari parlament aʼzolari har yili umumiy tarix va qahramonlikni eʼzozlash ramzi sifatida ushbu anʼanani davom ettirib kelmoqda.

“Xalq soʻzi”.

DEPUTAT ZIMMASIDAGI YUK

Oʻzbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidovning “Sizni xalq sayladi, qilmadi suyuq, Balki yelkangizga yuk ortdi buyuk!” degan satrlarida bitilganidek, deputatning zimmasida ulugʻ va sharaflı yuk borki, bu saylovchilarning ishonchiga yarasha faoliyat yuritishidir. Yaʼni har bir saylovchining ishonchi – katta bir masʼuliyat. Boshqacha aytganda, oʻtgan saylovda viloyat Kengashiga viloyatimizdagi yarim million saylovchilar tomonidan 40 nafar deputat saylangan boʻlsak, demak, har birimizning 12 – 15 ming saylovchimiz bor va albatta, zimmamizda ana shuncha yuk mavjud. Shu zalvarli yuk masʼuliyatini doim his etib ish yuritsak, saylovchilar ishonchini toʻla-toʻkis oqlaymiz va deputatlik obroʻyimiz ham baland boʻladi.

Qaror va ijro

Bu borada har bir deputat sessiyalarining shunchaki ovoz beruvchisi emas, balki oʻz fikri, taklifi, tashabbusiga ega ishtirokchisi boʻlishi muhim. Qolaversa, oʻzlari aʼzo boʻlgan doimiy komissiyalarda ana shunday faollik koʻrsatishlari lozim.

Aytish joizki, bugungi kunda Sirdaryo viloyati Kengashi deputatlari oʻz faoliyatlarini samaradorligi yuqori boʻlishining bosh mezonini saylovchilar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri va muntazam muloqotda boʻlib turishda deb bilmoqda. Bunda saylovchilar, “mahalla yettilligi” bilan uchrashish, muammolarni joyida oʻrganish va hal etish, tegishli tashkilot va idoralarga deputat soʻrovlari taqdim qilishga alohida eʼtibor qaratilayotir.

Xususan, joriy yilning yanvar – oktabr oylarida oʻtkazilgan xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida deputatlar tomonidan masʼul rahbarlarga qoʻshimcha ravishda 18 ta taklif va mulohaza

bildirildi. Shuningdek, joriy yilning shu davriga qadar tegishli idoralarga 131 ta deputatlik soʻrovi yuborildi. Hozircha mazkur masalalarning 55 tasi, yaʼni 43 foizi ijobiy hal etildi. Qolgan 33 ta muammo ijrosi jarayonda. Eʼtiborlisi, bugungi kunda deputatlar tomonidan oʻrganilgan va aniqlangan muammolarni “Hokimlik soati” orqali hal qilish tizimi ham qoʻllanilmoqda.

Albatta, deputatlik soʻrovlari oʻz-oʻzidan yuborilmaydi. Bu oʻsha hududda saylovchilar va saylangan vakil oʻrtasidagi aloqalarning mustahkamligi va deputatning uygʻoqligi natijasidir. Qaysi hududdan saylangan vakil oʻz ishiga masʼuliyat bilan yondashsa, muammolarga nisbatan murosasiz boʻlsa, oʻsha hudud rahbarlari ham sergak tortadi.

Misol uchun, deputat Azizbek Rahmonovning Xovos tumanidagi Husnobod va Binokor mahallalaridan oʻtuvchi 10 km. masofadagi avtomobil yoʻlini taʼmirlash

toʻgʻrisidagi soʻrovi ijobiy hal boʻldi. Deputat Gulnoza Abbasova Mirzaobod tumanining T. Aboshev nomidagi mahallaga suyuqlitirilgan gaz ballonlarni oʻz vaqtida olib kelish boʻyicha soʻrov joʻnatganidan soʻng bu boradagi muammolar toʻliq bataraf etilgani maʼlum qilingan. Deputat Sherali Mamadetsoyev esa Xovos tumani “Oqchangal” MFY hududidagi 8-umumtaʼlim maktabi oʻquvchilari avtomagistral yoʻlini xavfsiz kesib oʻtishlari uchun zaruriy yoʻl belgilari oʻrnatilishiga munosib hissa qoʻshdi.

Sardoba tumani “Yangiqishloq” MFY hududi tuman markazidan chetda boʻlgani va bankomat mavjud emasligi bois fuqarolarda naqd pul bilan bogʻliq muammolar yuzaga kelgan edi. Deputat Rustam Tursumurodovning tashabbusi bilan mazkur mahallaga Markaziy bank boshqarmasi tomonidan bankomat oʻrnatib berildi.

Deputatlarimiz tashabbusi va jonkuyarligi sabab oʻz yechimini topayotgan masalalar borasida yana koʻplab misollarni keltirish mumkin. Gap ularni sanashda emas, balki deputat uygʻoqligi va oʻz zimmasidagi yukni his qilgani sabab erishilgan natijalardir.

Bugungi kunda soʻnggi 8-9 yildagi ulkan oʻzgarishlarni va Yangi Oʻzbekiston gʻoyasining eng ustuvor yoʻnalishlarini eʼtirof etmoqchi boʻlsak, albatta, avvalo, “inson qadri ulugʻ”, “xalqchil davlat”, “ochiqlik”, “mahallabay ishlash”, “xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, degan tushuncha-tamoyillar koʻz oldimizga keladi. Zero, bu iboralar allaqachon hayotiy haqiqatga, jamiyat va xalq hayotida kundalik

voqelik, rahbarlaru oddiy xodimlar, albatta, deputatlar faoliyatining doimiy hamda asosiy vazifasiga aylangan va ularning har biri qonuniy-meʼyoriy hujjatlar bilan mustahkamlangan.

Mamlakatimizda davlat hokimiyatini xalqqa yanada yaqinlashtirish, xalq hokimiyatchiligi asoslarini kuchaytirish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq hokimlar va mahalliy Kengashlarning vakolatlari bir-biridan ajratildi. Aholining joylardagi dolzarb muammolarini hal etish uchun chinakam “xalq ovozi” boʻlmish mahalliy Kengashlarga keng vakolatlarni berildi.

Maʼlumki, Prezidentimiz Oliy Majlis Senatining 2024-yil 19-noyabr kuni boʻlib oʻtgan 1-yalpi majlisida Kengashlar va deputatlarga yuksak ishonch bildirib, “Davlat va xalq xizmatchisining – u senator yoki deputat boʻladimi, hokim yoki vazir boʻladimi – rahbarlik masʼuliyatini oʻz zimmasiga olganidan soʻng begʻam-beparvo, loqayd boʻlib yurishga, huzur-halovatga berilib yashashga maʼnaviy haqqi yoʻq” degan soʻzlari biz, senatorlarning zimmasida qay darajada salmoqli masʼuliyat borligini eslatib turadi.

Ana shu masʼuliyat va sharaflı faoliyat samaradorligi yuqori boʻlishiga erishishning bosh omili esa asosiy eʼtiborni masalalarni joyida oʻrganish hamda ijobiy hal qilishni taʼminlashga, saylovchilar bilan doimiy muloqotda boʻlishga qaratishdan iboratdir.

Pokiza AHMEDJONOVA, xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi raisi, senator.

QORAOʻZAKDA MUAMMOLARGA YECHIM TOPILDI

Oliy Majlis Senati aʼzolari Erkin Gadoyev hamda Kobul Tursumov Qoraqalpogʻistonning Qoraoʻzak tumanida boʻlib aholi, xotin-qizlar va yoshlar bandligini taʼminlash, ularni qoʻllab-quvvatlash hamda mahalla hayotidagi ijtimoiy faollikni oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holatini oʻrgandi.

Senator va hayot

Dastlab senatorlar tumandagi pomidor yetishtirishga ixtisoslashtirilgan issiqxonada boʻlib, ekin parvarishi jarayonlari, yaratilgan mehnat sharoitlari va mavjud ish oʻrinlari boʻyicha mutasaddilar bilan muloqot qildi. Ushbu loyiha xotin-qizlar va yoshlarning mehnatga jalb etilishida muhim ahamiyat kasb qilayotgani aytili.

Shundan soʻng senatorlar Madaniyat mahallasida boʻlib, mahalla raisi, faollar, xotin-qizlar hamda yoshlar bilan uchrashdi. Muloqotda xotin-qizlar bandligi, ularga kasb-hunar oʻrgatish, yoshlar tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash masalalari hamda mavjud muammolarni bartaraf etish yoʻllari muhokama qilindi.

Yakunda senatorlar mahalla faollari va tuman masʼulilariga aholi, xotin-qizlar va yoshlar bandligini taʼminlash, ularning tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash hamda tumanda iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga doir oʻz taklif va tavsiyalarini bildirdi.

“Xalq soʻzi”.

Oʻzbekiston tegishli qonun bilan Xalqaro metrik Konvensiyasiga qoʻshildi.

2026-yil 1-yanvardan davlat boshqaruvini raqamli transformatsiya qilish va samaradorligini oshirishga qaratilgan

ASOSIY MAQSDAD SUDNI TOM MA'NODA «ADOLAT QO'RG'ONI»GA AYLANTIRISHDAN IBORAT

11-moddasidagi "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi" degan konstitutsiyaviy prinsip amalda bo'lishini ta'minlaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning sud hokimiyatiga bag'ishlangan bobidagi 11 ta moddada odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, sud hokimiyatining huquq va majburiyatlari, sud qarorlari barcha uchun majburiyligi, sudya va oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlash, sudyaning muayyan ishni ko'rishdagi vakolatlari hamda sudlar faoliyatini moliyalashtirish kabi 30 dan ziyod muhim konstitutsiyaviy normalar mustahkamlandi. Bularning barchasi sudyalarni mustaqilligi, odil sudlov tizimini demokratlashtirishning konstitutsiyaviy asoslari qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim shartlari sifatida sezilarli darajada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Tizim mustaqil bo'lmasa, jamiyatda rivojlanish bo'lmaydi

Ta'kidlash joizki, sud hokimiyatining tom ma'nodagi mustaqilligini ta'minlashga, tizim xodimlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilashga yuksak darajada e'tibor qaratib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari **"Sud tizimi mustaqil bo'lmasa ekan, jamiyatimizda rivojlanish bo'lmaydi"** degan fikrni hamisha takrorlashi bejiz emas. Chunki sud idorasiga ishi tushgan har bir shaxs ushbu dargohda qonun va adolat ustuvor ekaniga ishonch hosil qilishi lozim.

Yangi O'zbekistonda har qanday bahsli masalaga adolatli yechim faqat odil sud tomonidan topilishi kerak. Bu borada sudlar tomonidan konstitutsiyaviy normalar to'g'ridan-to'g'ri va bir xilda qo'llanilishi orqali inson huquqlariga oid kafolatlarni to'laqonli ta'minlash maqsadida Oliy sud Plenumining "Odil sudlovni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu o'rinda Konstitutsiya normalari

qo'llanib ko'rilgan sud ishlari statistikasiga e'tibor qarating: 2023-yil 1-maydan 2025-yilning o'tgan 10 oyigacha bo'lgan davrda sudlar tomonidan jami 426 mingdan ortiq ish va materiallarda yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalari



"Yangi O'zbekiston – yangi sud" tamoyili

O'tgan qisqa davrda sudlarning haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, sud-huquq tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

"O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasi.

to'g'ridan-to'g'ri qo'llanildi. Xususan, shu qisqa muddat ichida 67 157 ta jinoyat ishi hamda materialida, ma'muriy huquqbuzarlikka oid 149 665 ta ish va materialda, 75 549 ta fuqarolik ishida, 112 149 ta iqtisodiy ishda, shuningdek, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan 21 535 ta ma'muriy ishda sudlar tomonidan bevosita yangilangan konstitutsiyaviy normalarga tayanib ish ko'rildi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasiga ko'ra, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Bugungi kunda ushbu qoidalar hayotga tatbiq etish barcha bosqichdagi sudlarning bosh vazifasiga aylangan.

Jumladan, 2022 – 2025-yillarda Oliy sud tomonidan 60 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat loyihalari ishlab chiqilib, sud tizimiga oid 30 dan ziyod qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular asosida sud tizimi tubdan takomillashtirildi.

Bu hujjatlar bilan **"Inson qadri uchun"** g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatining samarali himoyasiga yo'naltirish, adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishilmoqda. Shu orqali xalqimiz, jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sud qarorlarining qat'iy ijrosini ta'minlash, **"Yangi O'zbekistonda – yangi sud"** tamoyili doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, sohaga ilg'or xalqaro mezonlarni joriy etish choralari ko'rilmogda.

Davlatimiz rahbarining tegishli Farmoni

bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ham sud tizimi uchun "Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish" yo'nalishida 18 ta aniq vazifa belgilab berildi.

Sud islohoti doirasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan yana bir muhim hujjat – "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni bilan 2023 – 2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi tasdiqlandi.

Uning doirasida tizim faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya etishga yo'naltirish bo'lib, unda adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalq, jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalarni siymosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishish kabi 40 ta aniq vazifa belgilab berildi.

Sudlarning moliyaviy mustaqilligi kuchaytirildi. Sud hokimiyati mustaqilligi prinsipiga rioya qilish, sudlarni moddiy-texnika jihatdan va moliyaviy ta'minlash masalalarini mustaqil hal etish maqsadida Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti faoliyati yanada takomillashtirildi.

Qolaversa, sud ishlarni yuritishda yangi institutlar kiritildi, mavjudlari takomillashtirildi. Jinoyat protsessida yarashuv instituti kengaytirildi, jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida alohida sudyalarni – tergov sudyalari lavozimlari kiritildi, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv, fuqarolik va iqtisodiy sudlarda sudgacha majlis, soddalashtirilgan tartibda ish yuritish, mediatsiya institutlari joriy qilindi.

Xususan, jinoyat ishi yurituvda insonparvarlik tamoyillari asosida "Xabeas korpus" institutini yanada keng tatbiq etish maqsadida 2025-yil 1-yanvardan tergov sudyalari instituti milliy amaliyotga joriy etilishi bilan inson huquqlarining sud orqali himoya qilinishi kafolatlandi.



"Elektron odil sudlov" tizimi va raqamlashtirish

Davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yil 21-avgustda imzolangan "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni sud-huquq islohotlarining izchil davomi sifatida sudlar uchun tarixiy hujjat bo'ldi. Farmon bilan sud-huquq tizimining samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kengroq joriy etish nazarda tutiladi.

Ushbu texnologiyalar byurokratik to'siqlarni kamaytirish, ayniqsa, sun'iy intellektga asoslangan "aqli" texnotizmlar orqali arizalarni elektron tarzda qabul qilish, hujjatlarni avtomatlashtirilgan tarzda ko'rib chiqish va sud qarorlarining shaffofligini ta'minlaydi.

Sud ishlarni yuritishda qog'oz shaklidan voz kechish maqsadida **"Raqqamli sud" konsepsiyasi** asosida ishlarning yuritilishini to'liq elektron shaklga o'tkazish, joriy yil yakuniga qadar tajriba tariqasida Toshkent shahrida barcha raqqamli imkoniyatni o'zida mujassam etgan zamonaviy sud zallari tashkil qilinadi. Tajriba natijalari asosida konsepsiya 2026-2027-yillarda bosqichma-bosqich respublikaning barcha sudlarida tatbiq etiladi.

Shuningdek, 2023 – 2026-yillarda sud tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli Strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha Harakatlar dasturi bilan sud hokimiyatining chinakam

mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar belgilandi. Ana shu vazifalardan kelib chiqib, bugungi kunda sudlarni raqamlashtirish ishlari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilmoqda. Sudlar faoliyatiga zamonaviy texnologiyalar keng joriy etilmoqda.

Sudlarda ishlarni ko'rib chiqishda adolatni, ochliklik va shaffoflikni ta'minlash uchun **"Elektron odil sudlov" tizimi** tatbiq qilindi. Endilikda sudyalarni o'rtasida ishlarni inson omilisiz, avtomatik ravishda taqsimlash, sudlarga elektron murojaat va sud hujjatlarini tarafdarga elektron shaklda yuborish, sud majlislarini audioyozuvda qayd etib borish, sud qarorlarini internet tarmog'ida e'lon qilish, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish kabi zamonaviy yondashuvlar odil sudlov samaradorligini oshirishga zamin yaratmoqda.

Hozirda sudlarning axborot tizimi bilan vazirlik va idoralarning axborot tizimlari o'rtasida ma'lumotlarni elektron shaklda olish tartibi amaliyotga joriy etilib, ular bilan ma'lumotlar almashinuvi to'liq yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda Oliy sudning Interfaol xizmatlar portali ishga tushirilib, u orqali fuqarolarga 14 turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Singdirilgan mezon samarasi

Umuman, yangilangan Asosiy Qonunimizga singdirilgan "inson manfaati har narsadan ustun" mezonini bugun amalda o'z ifodasini topmoqda.

Davlatimiz rahbari sud sohasi vakillari uchun eng muhim vazifalar sifatida belgilab bergan, xalqimiz kutayotgan adolatli qarorlar qabul qilishga har tomonlama qodir, irodasi mustahkam, yuksak kasb va ma'naviy fazilatlariga ega sud xodimlari tarkibini shakllantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, sud qarorlari ijrosini so'zsiz ta'minlash, odil sudlovga erishish bo'yicha muntazam ish olib borish mutlaqo yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida davr talabidir.

Baxtiyor ISLOMOV,
O'zbekiston Respublikasi
Oliy sudi raisi.

XALQ XOHISH-IRODASI, ORZU VA INTILISHLARI IFODASI

Bugun biz yashayotgan zamon tezlashgan tarix, o'zgarayotgan tafakkur davri. Yurtimizda amalga oshayotgan islohotlar sur'atini kuzatar ekanmiz, har qanday sohadagi yuksalish bir haqiqatni yana bir bor tasdiqlaydi: har bir jamiyatning ertangi kuni uning ilm-fan, ta'lim va ma'naviyatga bergan e'tibori bilan belgilanadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar bu boradagi siyosiy irodani yanada mustahkamladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 50 – 53-moddalari aynan o'sha milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy ustunlari sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu moddalarda nafaqat ta'lim olish huquqi, balki insonning ijodkorlik qobiliyatini erkin rivojlantirish, ustoz sha'nini ulug'lash, madaniyat va fanning yurt taraqqiyotidagi o'rnini yuksak baholash, o'quvchi-yoshlarning, pedagoglarning, ta'dqiqotchilarning imkoniyatlarini keng ochish tamoyillari mujassam.

Konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki xalqning xohish-irodasi, orzusi va intilishlarining ifodasidir. Yangi O'zbekistonning Bosh qomusi esa aynan ilg'a tayanadigan jamiyatni barpo etish yo'lida mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, Asosiy Qonunimizning 50-moddasi **"Har kim ta'lim olish huquqiga ega"** degan tamoyil bilan boshlanadi. Bu jumla oddiy huquqiy norma emas. Balki, xalqning taqdirini o'zgartira oladigan qudratli ijtimoij g'oyadir. Chunki, ilm olgan avlodgina jamiyatni yuksaltiradi, yangilik yaratadi, islohotlarni davom ettiradi.

Bugun O'zbekistonda ta'lim tizimi tubdan modernizatsiya qilinmoqda. Ustuvor yo'nalish sifatida maktabgacha ta'lim qamrovi bir necha baravar oshdi. Maktablar rekonstruksiya qilinmoqda, yangi o'quv dasturlari, zamonaviy darsliklar joriy etildi. O'quv jarayoniga STEAM ta'lim, raqqamli texnologiyalar, xalqaro baholash dasturlari keng kirib kelmoqda.

Shu ma'noda, Konstitutsiyadagi **"Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir"** degan normalar jamiyatimizdagi har bir oila, har bir farzand uchun ishonchli ijtimoij tayananch bo'lib xizmat qilmoqda.

Maktabga boradigan har bir bola ortida davlatning ishonchi, xalqning ertangi kuni, otionalarning orzusi mujassam. Shuning uchun ham maktab jamiyatning eng muhim qadriyatidir. Yangi O'zbekiston bu qadriyatni amalda himoya qilmoqda.

Konstitutsiya ta'lim tizimida alohida ehtiyojli bolalarning huquqlarini ham ko'rsatib o'tadi. Bu esa, xalqparvarlik siyosatining yorqin ko'rinishi.



Bugun O'zbekistonda yuzlab maktab va bog'chalarda inklyuziv ta'lim joriy etilib, o'qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o'tmoqda. Bu bolalarning iste'dodlari, qobiliyatlari ochilishiga imkon yaratayotir. Eng muhimi, jamiyatda mehr, bag'rikenglik va tenglik tamoyillarini mustahkamlamoqda.

Konstitutsiyaning 51-moddasi oliy ta'lim masalalarini qamrab oladi. Unga ko'ra: **"Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli"**. Har bir iqtidorli yosh endi bilimga tayanib, o'zi xohlagan yo'nalishda davlat grantida o'qish imkoniga ega.

Yana bir muhim jihat, oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik taqdim etilganidir. Bu

esa, universitetlar o'z ilmiy siyosatini mustaqil yuritishi, talabalar uchun zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi, xalqaro hamkorlikni kengaytirishi uchun muhim asos. Natija ham shunga yarasha: yuzlab yangi ta'lim yo'nalishlari ochildi, jahon reytinglariga kirayotgan OTMlar soni ortmoqda, talabalarimiz xalqaro olimpiadalarda, ilmiy tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallayotir. Bu o'zgarishlar kelajak intellektual avlodning shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Bosh qomusimizning 52-moddasi o'qituvchining jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. O'qituvchining mehnati jamiyatni rivojlantirishning asosidir. Bu so'zlar, aslida, ming yillik haqiqatning huquqiy ifodasi. Chunki ustoz farzand taqdirini belgilaydigan, millatning istiqboliga yo'l ochadigan eng sharaflı kasb egasi.

So'nggi yillarda yurtimizda o'qituvchiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ularning oylik maoshlari sezilarli oshdi, ustozlar uchun uy-joy dasturlari joriy etildi, malaka oshirish tizimi yangilandi hamda ta'lim sifatini oshirish uchun pedagoglar xalqaro standartlar asosida tayyorlanmoqda.

Eng muhimi, Konstitutsiya ustoz sha'nini himoya qiladi. Bu esa ta'lim tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlab, yosh avlodning bilim olishiga yanada rag'bat bag'ishlaydi.

So'zimizni islohotlar samarasi bilan davom ettiradigan bo'lsak, bugungi kunga kelib o'qituvchilarning oylik maoshiga o'ndan ortiq ustamalar joriy qilindi. Bugun o'z ustida ishlagan 60 mingdan ortiq pedagog 10 – 12 million so'm maosh o'lapti.

Natijalar ko'p kuttirayotgani

Bugun ilm-fan sohasida ilmiy loyihalar uchun davlat grantlari ko'paydi, yosh tadqiqotchilar uchun alohida dasturlar joriy etildi, oliy ta'lim tashkilotlari huzurida texnoparklar, inkubatsiya markazlari, innovatsion laboratoriyalar ochildi, startup tashabbuslari qo'llab-quvvatlanmoqda va

Konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki xalqning xohish-irodasi, orzusi va intilishlarining ifodasidir. Yangi O'zbekistonning Bosh qomusi esa aynan ilg'a tayanadigan jamiyatni barpo etish yo'lida mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

yo'q. 2025-yilning 8 oyi davomida xalqaro fan olimpiadalarda yurtimiz o'g'il-qizlari 195 ta medalni qo'lga kiritdi. Xorijiy til egalari jalb qilingan mingdan ziyod maktabda til bo'yicha sertifikat olgan o'quvchilar soni bir yilda 2,5 barobar ko'paydi.

Konstitutsiyaning 53-moddasi ilmiy, texnik va badiij ijod erkinligini kafolatlaydi. Bu modda shunchaki huquqiy norma emas. U yangi davrning strategik chaqirig'idir.

intellektual mulk huquqlari kuchaytirildi. Shu bois ilm-fan, texnologiya, innovatsiya Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bosh omiliga aylandi.

Konstitutsiya madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqini ham kafolatlaydi. Buning amaliy ifodasini bugungi hayotda ko'rib turibmiz: teatrlarda yangi sahna asarlari qo'yilmoqda, muzeylar modernizatsiya qilindi, yosh ijodkorlar uchun davlat stipendiyalari yo'lga

qo'yildi, milliy kinematografiya rivojlanayotir.

Sport sohasida esa, O'zbekistonning xalqaro maydondagi yutuqlari ayniqsa, yoshlarning olimpiya va jahon chempionatlaridagi g'alabalari davlat e'tiborining natijasidir. Shu tariqa Konstitutsiya normalari hayotda o'z real natijasini bermogda.

Bu yil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33 yilligini keng nishonlaymiz. Bugungi kunda Asosiy Qonunimiz Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar ortga qaytmassligining mustahkam huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya faqat huquqiy hujjat emas, balki mamlakatimiz kelajagini belgilaydigan dasturilamal qomusdir. Undagi har bir modda, ayniqsa ta'lim, ilm-fan, madaniyat va yoshlarga oid normalar jamiyatimizning eng muhim qadriyatlarini ifodalaydi. Asosiy Qonunimizda belgilangan ushbu normalar Yangi O'zbekistonning ertangi kuni bo'lgan bilim, bunyodkor, tafakkuri ochiq avlodni tarbiyalashga qaratilgan.

Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining
Fan, ta'lim, madaniyat,
sport va yoshlar masalalari
qo'mitasi raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

AHOLI IJTIMOIIY-IQTISODIY
HIMOYASINING MUHIM POYDEVORI

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yigʻilishlari boʻlib oʻtdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalari koʻrib chiqildi. Asosiy eʼtibor qonun loyihalarining dolzarb ahamiyatga egaligiga qaratilib, ularni yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirishga oid muhim taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi qonun loyihasi oltinchi marta muhokama qilindi.

Qonun loyihasida kelgusi yil uchun asosiy soliq va bojxona stavkalarini oʻzgartirmasdan saqlab qolish nazarda tutilgan boʻlib, u bilan soliq siyosatining oʻrta muddatdagi asosiy yoʻnalishlari sifatida soliq maʼmurchiligi va raqobat muhitini yaxshilash, atrof-muhitni himoya qilishni ragʻbatlantirish hamda byudjet daromadlarining barqarorligini taʼminlashga qaratilgan choralar belgilangan.

Fraksiya aʼzolari loyihada soliq va byudjet siyosatining asosiy yoʻnalishlari jamiyat rivojlanishi va tadbirkorlik faolligining yanada oshishiga hamda mamlakatda moliyaviy barqarorlikni taʼminlashga xizmat qilishini qayd etdi. Qonun loyihasini qoʻllab-quvvatlagan holda unda tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash, ish oʻrinlarini yaratish borasida ajratilayotgan mablagʻlarning yil sayin oshib borayotgani, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy yukini kamaytirish orqali ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yangicha yondashuvlar aks etganini alohida taʼkidlashdi.

Muhokama davomida byudjet daromadlarini oshirish, soliq bazasini yanada kengaytirish, “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish, byudjet mablagʻlaridan foydalanishda samaradorlikni oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi.

Yigʻilishda “Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari qabul qilangani munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi ham koʻrib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi iqtisodiyot sohalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish va tashqi bozorlarga eksport qilishni kengaytirish, aholining daromadlarini oshirish va hududlarda barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlashga qaratilgan.

Fraksiya aʼzolari qonun loyihasida nazarda tutilgan normalar partiya maqsad va vazifalariga uygʻun va hamohang ekanini qayd qilib, unda tadbirkorlarga qulayliklar yaratish maqsadida nazarda tutilayotgan

yangiliklarni alohida eʼtirof etdi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda muhokama etildi.

Maʼlum qilinganidek, qonun loyihasida keyingi yilda ijtimoiy soha uchun ajratilgan mablagʻlar 220 trln. soʻmni tashkil etib, ular umumiy xarajatlarning deyarli 55 foizini tashkil qilayotgani aks etmoqda.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining kelgusi yildagi byudjet koʻrsatkichlaridan soʻng muhokamaga oʻtildi. Jumladan, deputat Kozim Tojiyev bir necha yil oldin maktablarni qurish va taʼmirlash ishlari mahalliy hokimliklardan olinib, Taʼlim vazirligi ixtiyoriga oʻtkazilganini eslatib, tegishli vazirlikdan kelgusi yildan boshlab bu jarayon yana eski tartibga oʻtkazilayotganiga izoh soʻradi.

Deputat Umida Rahmonova esa darsliklar bilan bogʻliq masalani koʻtarib, ularni yangilash maqsadlariga yoʻnaltirilayotgan mablagʻlar yildan-



yoʻnaltirilayotgan mablagʻlar hamda boshqa aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan maqsad va vazifalarga eʼtibor qaratdi.

Taʼkidlab oʻtilganidek, qonun loyihasida keyingi yilda ijtimoiy soha uchun ajratilgan mablagʻlar umumiy xarajatlarning deyarli 55 foizini tashkil qilayotgani aks etmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan islohotlarning eng ustuvor yoʻnalishi sifatida belgilab berilgan taʼlim sifatini oshirish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga toʻliq javob beradigan tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish uchun Davlat byudjeti



yilga koʻpaytirilayotgani, biroq darsliklar taʼminoti ayrim maktablarda hamon muammoligicha qolayotganini taʼkidladi.

Shuningdek, deputat joriy yilda “Toza qoʻllar” yangi loyihasi uchun tegishli mablagʻ ajratilganiga qaramay loyiha hali toʻliq ishga tushmagani sababi bilan qiziqdi.

Hukumat vakillari koʻtarilgan masalalar yuzasidan atroflicha tushuntirish berib oʻtishdi.

Muhokamadan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi. Deputatlar, asosan, ijtimoiy sohaga

xarajatlarning 25,5 foizi miqdoridagi mablagʻlar taʼlim va fan sohasi, 12,1 foizi sogʻliqni saqlash hamda 4,2 foizi aholini ijtimoiy himoya qilish jami xarajatlari uchun ajratilishi oʻz ifodasini topaypti.

Munozaralar davomida fraksiya aʼzolari kelgusi yilda “Spinal mushak atrofiyasi” tashxisi qoʻyilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam koʻrsatish va dori vositalarini bepul yetkazib berish, odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlarni moliylashtirish masalasiga alohida eʼtibor qaratdi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy davlat tamoyillari asosida Davlat byudjeti

moliylashtirilib, mahalliy byudjetlarda qoldirilayotgan tushumlar aynan ushbu xarajatlarga yoʻnaltirilishi rejalashtirilgan.

Fraksiya aʼzolari partiyaning dasturiy maqsadlarida ustuvorlik kasb etadigan soha va yoʻnalishlarga ajratilayotgan mablagʻlar, koʻzda tutilayotgan marralar haqida loyiha tashabbuskorlari bilan qizgʻin muhokama olib bordi. Masʼullar tomonidan har bir bildirilgan fikr va yoʻllangan savollarga atroflicha javoblar berildi.

Yigʻilish yakunida fraksiya aʼzolari 2026-yil uchun Davlat byudjeti toʻgʻrisidagi qonun loyihasini qoʻllab-quvvatladi.

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “Byudjet jarayoni takomillashtirilganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, mazkur qonun loyihasi qonun va qonunosti hujjatlari oʻrtasida oʻzaro muvofiqlikni taʼminlash, mamlakat byudjet tizimi va byudjet jarayonini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Xususan, byudjet daromadlari tarkibini muvofiqlashtirish, xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda, Davlat byudjetining ijrosi toʻgʻrisidagi hisobot turklarini kengaytirish hamda byudjet tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning oʻzaro mutanosibligini taʼminlashga qaratilgan normalar belgilanmoqda.

Shuningdek, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamgʻarmalari ijrosi toʻgʻrisidagi hisobotlar shakllari va muhokama etish mexanizmlarini aniq belgilash koʻzda tutilmoqda.

Yigʻilishda qonun loyihasi mamlakatimizda fuqarolarni byudjet jarayoniga keng jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish, byudjet mablagʻlarini taqsimlashda shaffoflikni taʼminlash, byudjet mablagʻlaridan maqsadli va samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan alohida taʼkidlandi. Muhokamadan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Kun tartibidagi navbatdagi masala – fraksiya aʼzolarining 2025-yil 26 – 29-noyabr kunlari saylov okruglarida oʻtkazgan uchrashuvlarining yakunlari muhokama qilindi.

Muhokama davomida saylovchilar bilan uchrashuvlarda koʻtarilgan masalalarni masʼul idoralar bilan hamkorlikda hal etish choralari koʻrish muhimligi taʼkidlanib, kelgusida hududlardagi faoliyatni yanada kuchaytirish, aholi murojaatlari bilan ishlashda tizimli yondashuvni joriy qilish, ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarning joylarda oʻz vaqtida hal etilishini taʼminlash yuzasidan kelishib olindi.

“Xalq soʻzi”.

Ilmiy fikrlar va
tajribalar chorrahasida

Poytaxtimizda bolalar kasalliklari diagnostikasi hamda davosining yangi imkoniyatlariga bagʻishlangan IV xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya boʻlib oʻtdi.

Xalqaro anjuman

Toshkent davlat tibbiyot universiteti tomonidan Ryazan va Gomel tibbiyot universitetlari hamkorligida tashkil etilgan ushbu anjumanda yettita mamlakatning 25 ta oliygohi hamda ilmiy markazlari olimlari, tadqiqotchilar, shifokorlar bir maydonga jamlandi.

Tadbir davomida pediatriya sohasidagi eng dolzarb yoʻnalishlar muhokama qilindi, innovatsion yondashuvlar taqdim etildi, gʻoyalar toʻqnashdi. Maʼruzalarda milliy sogʻliqni saqlash siyosati, sunʼiy intellekt va zamonaviy diagnostika, semirish hamda metabolik buzilishlar, respirator kasalliklar va immunologiya, nutritsiologiya hamda neonatologiya, perinatal va bolalar jarrohligi, gastroenterologiyasi muammolariga urgʻu berildi.

Konferensiya nafaqat ilmiy maydon, balki tajriba, fikr va innovatsiyalar uchrashuvi boʻlib, yangi ilmiy hamkorlikka poydevor qoʻyildi, tadqiqotlar ilmiy jamoatchilik tomonidan qizgʻin tahlil qilindi. Yosh olimlar uchun haqiqiy “ilmiy ring” boʻldi deyish mumkin.

Anjuman doirasida taqdim etilgan “Oʻzbekiston tajribasida Siam egizaklarini ajratish”, “Yuvenil idiopatik artritda sunʼiy intellektning diagnostik imkoniyatlari”, “Respirator kasalliklarga qarshi kurashning yangi strategiyasi” kabi ilmiy chiqishlarning har biri pediatriya fani rivojida alohida ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, forum doirasida nafas yoʻllari va ichak immuniteti oʻrtasidagi bogʻliqlikka oid zamonaviy nazariyalar, profilaktika hamda davolashdagi innovatsion yondashuvlar taqdim etildi. Bolalar otorinolaringologiyasi sohasidagi muammolar oʻrtaga tashlandi.

Xorijlik mutaxassislar tomonidan vitamin D yetishmasligi bolalarda ortiqcha vazn, insulin rezistentligi va gormonal disbalansga qanday taʼsir qilishi, metabolizm buzilishlari hamda vitamin D darajalari oʻrtasidagi bogʻliqlik ochib berilgan boʻlsa, koʻkrak suti bilan oziqlantirishni qoʻllab-quvvatlash, ona suti bilan bogʻliq xalqaro standartlar, maxsus dasturlar va milliy amaliyotlar keng yoritildi.

Tabiyki, bunday ilmiy yangiliklar ishtirokchilarning eʼtiborini tortdi. Kelgusi yilda ham navbatdagi anjumanini yanada keng qamrovli boʻlishiga ishonch bildirildi.

“Xalq soʻzi”.

Yarmarka

MEHR VA MAHORATDAN
YARALGAN
MAHSULOTLAR

Fargʻona shahrida Ahmad al-Fargʻoniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi binosida nogironligi boʻlgan shaxslar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning koʻrgazma-savdo yarmarkasi oʻtkazildi. Unda shahar va tumanlardan kelgan 60 nafarga yaqin hunarmandlar 1 200 turdan ortiq rang-barang assortimentdagi mahsulotlari bilan ishtirok etdi. Peshona teri evaziga yaratilgan hunarmandchilik buyumlari, milliy liboslar, turli taqinchoq va bezaklar, kundalik roʻzgʻor anjomlari namoyish qilindi.

– Yarmarka va uning doirasida tashkil etilgan auktsion savdosida 100 million soʻmlikdan ziyod mahsulotlar sotilib, ushbu mablagʻlar toʻgʻridan-toʻgʻri nogironligi boʻlgan hunarmandlarning ijtimoiy kartasiga tushirib berildi, – deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Fargʻona viloyati boshqarmasi boshligʻi oʻrinbosari Hikmatillo Xoliqov. – Quvonarlisi, xaridorlar tomonidan sotib olingan 18 turdagi mahsulotlar noyob hamda oʻxshashi yoʻqligi eʼtirof etildi. Bunday tadbirlarni viloyatning har bir shahar-tumanida oʻtkazish hamda unga nogironligi boʻlgan shaxslar, hunarmand va tadbirkorlarni yanada kengroq jalb etish maqsad qilingan.

Yurtimizda nogironligi boʻlgan shaxslar bandligi, doimiy daromad manbaiga ega boʻlishini taʼminlashga qaratilgan bunday amaliy saʼy-harakatlar jamiyatimizda hech kim mehr va eʼtibordan chetda emasilganidagi dalolat beradi, ezgu tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Botir MADIYOROV
 (“Xalq soʻzi”).

Munosabat

INNOVATSION TASHABBUSLAR
YURT RAVNAQIGA XIZMAT QILADI

Bugungi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotgan sunʼiy intellekt nafaqat ish jarayonimizni yengillashtiradi, balki vaqtni tejash, tezkor qarorlar qabul qilish, sifatli maʼlumotga tayanilgan boshqaruvni yoʻlga qoʻyishda ulkan imkoniyatlar yaratadi. Eng muhimi, zamon bilan hamnafas boʻlishimiz, global raqobatda faol ishtirok etishimiz aynan sunʼiy intellekt yechimlariga bogʻliq boʻlib qolmoqda.

Oʻtgan haftada Xalqaro kongress markazida boʻlib oʻtgan sunʼiy intellekt boʻyicha xalqaro forumning tantanali ochilish marosimida Prezidentimiz ishtirok etib, yoshlar tomonidan yaratilgan loyihalar bilan bevosita tanishdi, ularning salohiyatiga yuksak baho berdi. Bu, avvalo, Oʻzbekistonda shakllanayotgan zamonaviy raqamli ekotizimning amaliy natijasidir.

Davlatimiz rahbari oʻz nutqida bir qator takliflarni ilgari surdi. Startaplarni qoʻllab-quvvatlash, ishlarni milliy miqyosda tatbiq etish, xalqaro bozorga olib chiqish, “Nvidia” bilan superkompyuter klasteri ishga tushirilishi, raqamli xizmatlar eksportini 5 milliard dollarga yetkazish kabi ustuvor vazifalar shular jumlasidan boʻlib, bular iqtisodiyotning yangi bosqichga chiqishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, taʼlim tizimiga sunʼiy intellektni chuqur integratsiyalash, maktablardan boshlab SI savodxonligini oshirish, har yili eng yaxshi startap gʻoyalari tanlovin oʻtkazish, “Sunʼiy intellekt boʻyicha Prezident tanlovi”ni yoʻlga qoʻyish kabi tashabbuslar kelajak avlod uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Tibbiyot sohasidagi natijalar ayni paytda eʼtiborga loyiq: sunʼiy intellekt yordamida 50 mingdan ortiq aniq tashxis qoʻyilgani,

jarayonlarning 5 – 7 barobar tezlashgani – islohotlarning real samarasi sifatida koʻrilmoqda.

Yurtimizda start berilgan “Besh million sunʼiy intellekt yetakchilari” loyihasi faqat texnologik dastur emas, balki katta ijtimoiy-iqtisodiy burilishdir. 2030-yilgacha 5 milliondan ortiq oʻquvchi, talaba, oʻqituvchi va davlat xizmatchilarini oʻqitish – Oʻzbekistonni mintaqadagi eng kuchli raqamli markazga aylantirish yoʻlidagi tashkiliy qadam.

Darhaqiqat, bugun sunʼiy intellekt nafaqat texnologiya, balki yangi imkoniyatlar eshigi, iqtisodiy oʻsish lokomotivi va yoshlar salohiyatini roʻyobga chiqaradigan platformaga aylanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, parlament vakillari sifatida biz ham mazkur yoʻnalishdagi qonunchilik bazasini takomillashtirish, startaplar va innovatsion tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash, hududlarda raqamli infratuzilmani mustahkamlash boʻyicha faol ish olib borishimiz shart.

Yangi Oʻzbekistonning raqamli kelajagi bugun yaratilmoqda. Bu jarayonda deputatlarining masʼuliyati – yuksak, burchi – aniq, maqsadi esa xalqimiz farovonligi va davlatimiz taraqqiyoti boʻlishi lozim.

Dilnoza AZIZOVA,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi deputati.

STRATEGIK VAZIFALAR VA
KENG IMKONIYATLAR

Prezidentimizning Samarqand viloyatiga bu galgi tashrifi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim voqea boʻldi.

Davlatimiz rahbari xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqida viloyatda erishilgan yutuqlarni eʼtirof etish barobarida hali ishga solinmagan imkoniyatlarga ham toʻxtaladi.

Koʻp ming yillik tarix hamda zamonaviylikni oʻzida mujassam etgan ulugʻ zamin bugun dunyo sivilizatsiyasida oʻz oʻrnini mustahkamlab borayotgani taʼkidlandi. Yangi barpo qilingan “Boqiy shahar” majmuasi, obod boʻlgan 40 dan ziyod muqaddas ziyoratgohlar, yangicha qiyofa kasb etgan “Samarqand” xalqaro aeroporti viloyat turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Taʼkidlash zarurki, soʻnggi yillarda Samarqand nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham yirik siyosiy, iqtisodiy, turizm va biznes markazi sifatida tanilmoqda. Birgina joriy yilda viloyatda 40 dan ortiq nufuzli xalqaro anjumanlarning oʻtkazilgani, xususan, YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ham bu zaminda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning samarasi hisoblanadi.

Haqiqatan ham, keyingi vaqtlarda viloyatda katta loyihalarga qoʻl urilmoqda. Xususan, Samarqand shahri hamda Urgut tumanini bogʻlagan 55 kilometrik temir yoʻl bunga misol boʻla oladi. Loyiha yiliga 359 ming yoʻlovchi va 8,2 million tonna yuk tashish imkonini beradi.

Sessiyada Urgut tumanidagi “Yangi Oʻzbekiston” massivi yaqinida 100 ming aholiga moʻljallangan zamonaviy ekoshahar qurilishi

ham eʼlon qilindi. Shuningdek, 17,5 ming gektar hudud Samarqand shahri tasarrufiga oʻtkazilishi taʼkidlandi. Bu urbanizatsiya jarayonlarini strategik rejalashtirish samaradorligini oshirib, Samarqand shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochadi.

Davlatimiz rahbari Urgut tumani misolida viloyatning mavjud imkoniyatlarini chuqur tahlil qilib, vazirlik, hokimliklar oldiga kelgusi yil uchun aniq va natijaga yoʻnaltirilgan vazifalarni qoʻydi. Bu topshiriqlar hududlar kesimida manzilli islohotlarni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu viloyatdan saylangan deputat sifatida shuni taʼkidlamochikimanki, mazkur sessiya Samarqand viloyatini rivojlantirishning yangi bosqichini belgilab beradi. Chunki qoʻyilgan vazifalar nafaqat yaqin istiqbolni, balki uzoq muddatli strategik maqsadlarni ham oʻz ichiga oladi. Asosiy maqsadlar esa oʻzgarmas – odamlarni rozi qilish, inson qadrini ulugʻlash. Shunday ekan, bu jarayonda nafaqat rahbar va davlat xizmatchilari, balki deputatlar hamda davlat hokimiyatining birdan-bir manbai boʻlgan xalqimiz ham Samarqandni eng namunalni hududga aylantirishda faol boʻlmogʻi lozim.

Azamat PARDAYEV,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi deputati.

2026-yil 1-yanvardan qoʻriqlovga olingan banklar, yirik korxonalar, mahalliy hokimliklar va boshqa obyektlarning fuqarolar kirish va chiqish joylariga bosqichma-bosqich shaxsning yuzini tanib olish imkoniyatiga ega texnik vositalar oʻrnatiladi.

Guruch dunyo aholisining toʻrtidan uch qismi uchun eng muhim oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi.

Guruch oq, sariq, qizil, qoʻngʻir, hattoki qora rangda ham boʻladi.

Oʻtgan yili jahonda 523,8 mln. tonna guruh ishlab chiqarilgan.

2023-yilda Oʻzbekiston 106,2 ming tonna guruh sotib olgan boʻlsa, oʻtgan yili import hajmi qariyb uch barobar kamayib, 37,5 ming tonnani tashkil etdi.

Mamlakatimizda bu yil 160,7 ming gektarda sholi yetishtirildi.

Tahlil

Mutaxassislarning aytishicha, biz isteʼmol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining qariyb 55 foizi donli ekinlar asosida ishlab chiqariladi. Ular orasida, ayniqsa, guruh oʻta talabgir boʻlib, dunyo aholisining toʻrtidan uch qismi uchun eng muhim neʼmat sanaladi.

Chindan ham, bugun dunyo xalqlari oshxonasi taomnomasini guruchli yeguliklarsiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Negaki, guruh tarkibida umuman tuz boʻlmaganligi sababli u yurak-qon tomir, buyrak yetishmovchiligi hamda ortiqcha vazndan qutulishni istagan kishilarga ham tavsiya etiladi. Shu bois unga boʻlgan talab yil sayin ortib boryapti. Oʻtgan yili jahonda 523.8 mln. tonna guruh ishlab chiqarilgan boʻlsa, joriy mavsum yakunlari boʻyicha bu koʻrsatkich 1.4 foiz oʻsib, 531.4 mln. tonnaga yetishi kutilmoqda. Shuning oʻziyoq sholichilik oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashda muhim rol oʻynaydigan tarmoqlardan biriga aylanganini yaqqol tasdiqlab turibdi.

Prezidentimiz shu yilning 15-oktabr kuni Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumanidagi “TST Rice” sholichilik klasteri faoliyatini bilan tanishar ekan, tabiat oʻzgarib, suv taqchilligi ortib borayotgan hozirgi sharoitda sohani ilimga, innovatsiyaga, ilgʻor texnologiyalarga tayanib rivojlantirish zarurligini alohida taʼkidladi. Bozor tamoyillarini kengroq joriy etish, hosildorlikni oshirish orqali daromadni koʻpaytirish boʻyicha topshiriqlar berdi.

Sholichilikka qaratilayotgan bunday eʼtiborni yurtdoshlarimiz katta mamnuniyat bilan qarshi oldi. Buni davlat rahbarining sholizordagi surati eng koʻp ulashigan va “layk” olgan foto boʻlganidan ham ilgʻash mumkin. Sababi oʻzbek xalqining azaldan eng muhim isteʼmol tovarlari qatoridan joy olgan guruchga munosabati boshqacha. Aksariyat milliy taomlarimiz aynan guruchdan tayyorlanadi-da! Toʻy-bazmlarimiz esa shohona taom – palovsiz oʻtmaydi. Shu bois ushbu don mahsulotiga talab har doim yuqori. Ana shu ehtiyojni toʻliq taʼminlash maqsadida sholichilikni rivojlantirish, ekin maydonlarini kengaytirish, ushbu tarmoqqa innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etishga ustuvor ahamiyat qaratilayotgani xalqimizning ayni dilidagi ish boʻldi.

Bozor tamoyillari asosida

Ochigʻini aytish kerak, ilgari sholichilik tarqoq boʻlgani uchun ushbu tarmoqda olinadigan daromad maqtangulik emasdi. Ayniqsa, sholini saqlash, qayta ishlashda muammolar yigʻilib qolgan edi. Keyingi yillarda bozor tamoyillari joriy qilinib, xususiy sektor keng jalb etilgani tufayli sohada sifat oʻzgarishlari kuzatila boshlandi. Birgina “TCT Rice” klasteri misolida aytganda, sholi yetishtirish, uni saqlash va chuqur qayta ishlash boʻyicha toʻliq sanoat zanjiri yaratildi.

Klaster rahbari Xonsaid Abdullayevning aytishicha, bu yil 2 ming gektardan ziyod maydonda sholining “Iskandar”, “Guliston”, “Nukus” navlari ekilib, parvarishlandi. Hosil yomon boʻlmadi. Gektaridan oʻrtacha 65 – 70 sentnerdan, ayrim dalalarda esa 80 – 85 sentnerdan magʻzi toʻq sholi olindi.

Tajribali dehqonlar yaxshi bilishadiki, hosilning daladagisi emas, ombordagisi naqd. Biroq omborda saqlash sharoitlari yaxshi boʻlmasa, hosilning 70 foizigacha yoʻqotilishi mumkin ekan. Shuning uchun “TCT Rice” klasteri tomonidan, birinchi navbatda, mahsulot saqlash uchun qulay maskan yaratish masalasi hal etildi. Avvallari yigʻib olingan sholi ochiq maydonlarda saqlangan boʻlsa, endilikda katta idishlarga qadoqlangan holda, umumiy sigʻimi 15 ming tonnalik ikkita yopiq omborxonada saqlanmoqda.

Bu yerda nafaqat sholini sifatli



Ilm, innovatsiya va ilgʻor texnologiyalarga tayanilgani sholichilik ictiqbolida yangi sahifalar ochmoqda

saqlash, balki qayta ishlash va qadoqlashda ham eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanilmoqda. Buning uchun klasterning zamonaviy zavodi Turkiyaning yetakchi kompaniyalari uskunali bilan jihozlangan boʻlib, bir yilda 40 ming tonna mahsulotni qayta ishlash quvvatiga ega. Ishlab chiqarish jarayonida sifat masalasi ustuvor etib belgilangan boʻlib, “aqli” texnologiyalar yordamida sholi nainki katta-kichikligiga koʻra, ayni paytda shakli va rangiga qarab ham saralanadi.

Kezi kelganda, aytish joizki, guruch oq, sariq, qizil, qoʻngʻir, hattoki qora rangda ham boʻladi. Mutaxassislar



Keyingi yillarda yurtimizda sholining “Tarona”, “Tantana”, “Sadaf”, “Billur”, “Ixlos”, “Ziynat”, “Yoʻldosh”, “Manzur” kabi gektariga 80 – 100 sentnergacha hosil beradigan, butun guruch chiqish darajasi 65 foizdan yuqori boʻlgan yangi navlari yaratildi.

taʼbiri bilan aytganda, innovatsion uskunalar guruchni xuddi kaptar tergandek saralab, isteʼmolchilarga yuqori sifatlí mahsulot yetkazib berish imkonini yaratmoqda.

Toshkent viloyatida ana shunday investitsiyaviy loyihalar amalga oshirilayotgani bois sholichilik tarmogʻida koʻplab yutuqlarga erishilmoqda. Aytaylik, joriy yil hosili uchun 8,7 ming gektarda sholi ekilgan boʻlsa, shundan 3 ming gektari lazerli tekislanib, suv tejovchi texnologiyalar qoʻllanildi. Natijada viloyat boʻyicha 60 mln. metr kub obihayot tejaldi, urugʻlik sarfi 522 tonnaga kamaydi.

Eski usullardan endi naf yoʻq

Gap ravishi tejamkorlik va samaradorlik tomon burilgan ekan, savol tugʻilishi tabiiy: suv va yer resurslari cheklangan Oʻzbekiston sharoitida sholichilikdan moʻl hosil olishning imkoni bormi?

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassislarining aytishicha, albatta, bor. Buning uchun, eng avvalo, tarmoqda serxarajat va samarasi past usullardan voz kechib, resurstejamkor va zamonaviy agrotexnologiyalarni qoʻllash, urugʻchilikni rivojlantirish lozim. Zotan, eskicha ish tutumlaridan endi naf yoʻq.

Sohani rivojlantirish maqsadida institutimiz tomonidan sholichilikda yetakchi boʻlgan dunyoning 14 davlatidagi 22 ta ilmiy-tadqiqot va oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlik yoʻliga qoʻyildi, – deydi Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha oʻrinbosari, qishloq xoʻjaligi fanlari doktori, professor Zohidjon Ziyodullayev. – Natijada tashqi taʼsirlarga chidamli, serhosil navlar yaratishga muvaffaq boʻlindi.

Jumladan, “Mekong Delta” ilmiy-tadqiqot instituti (Vyetnam) bilan hamkorlik doirasida ertapishar, shoʻrga, kasalliklarga chidamli va hosildorligi yuqori boʻlgan xorijiy seleksiyaga mansub 13 ta nav va 2 ta duragay mahalliy nav bilan chatishtirish ishlari olib borildi. Natijada 6 ta xorij sholi navi Qoraqalpogʻiston va Xorazm viloyati tuproq-iqilm sharoitiga toʻliq moslashtirilib, birlamchi urugʻchiligi yoʻlga qoʻyildi. Bundan tashqari, Vyetnam seleksiyasiga mansub 6 ta yangi sholi navini ekologik sinash va mahalliy navlar bilan chatishtirish orqali sholining yangi “Manzur” va “Yoʻldosh”

yetishtirilgan boʻlsa, shuning 63,6 ming gektari asosiy ekin sifatida joylashtirildi. Qolgan katta qismi esa gʻalladan boʻshagan maydonlarda ekildi. Ayni shu jihat sholichilikda suvni tejaydigan texnologiyalar, tezpishar navlarni joylashtirishni taqozo qiladi. Buning sinalgan usuli ekin yerlarini lazerli uskunalar yordamida tekislash, koʻchatlab ekishdir. Negaki, tadqiqotlarning koʻrsatishicha, obihayotning behuda yoʻqotilishiga koʻp jihatdan ekin maydonlarining notekisligi sabab boʻlar ekan. Koʻchatlab ekish usuli esa takroriy ekin sifatida sholidan barakali hosil olishni kafolatlaydi.

Jahon tajribasining koʻrsatishicha, sholini koʻchat usulida ekish urugʻ sepsish usuliga qaraganda ancha samaralidir. Ham suv, ham urugʻlik tejraladi. Shuning uchun bugungi kunda dunyoda yalpi sholi hosilining 95 foizidan ortigʻi koʻchatlab ekilgan maydonlar hisobidan olinadi. Yurtimizga koʻchat qadashda qoʻllaniladigan xorijning zamonaviy uskuna va mashinalari olib kelinib, ushbu usul endi-endi ommalashmoqda. Natijada dehqonlarning yumushi osonlashyapti. Aytaylik, qoʻl mehnati yordamida 1 gektar maydonga oʻrtacha 12 soat koʻchat qadab boʻlinsa, shuncha vaqt ichida qoʻlda ishlaydigan agregatlar yordamida 1.5 gektarga, mashinalar orqali esa 7-8 gektarga sholi nihollarini oʻtqazib chiqish mumkin.

Sholichilikda resurs tejovchi ushbu agrotexnologiyani dastlab Toshkent, Namangan, Sirdaryo hamda Andijon viloyatlarida joriy etish boʻyicha amaliy ishlarga kirishildi. Natijada sholi koʻchatini mexanizmlar bilan ekish evaziga urugʻlik gektariga 100 – 110

Toshkent viloyatida 2025-yil hosili uchun 8,7 ming gektarda sholi ekilgan boʻlsa, shundan 3 ming gektari lazerli tekislanib, suv tejovchi texnologiyalar qoʻllanildi. Natijada viloyat boʻyicha 60 mln. metr kub obihayot tejaldi, urugʻlik sarfi 522 tonnaga kamaydi.



ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Bularning samarasi ham tez orada koʻzga tashlana boshlaydi. Umuman olganda, institutda olib borilgan koʻp yillik tadqiqotlar natijasida sholining 80 – 100 sentnergacha hosil beradigan, butun guruch chiqish darajasi 65 foizdan yuqori boʻlgan “Tarona”, “Tantana”, “Sadaf”, “Billur”, “Ixlos”, “Ziynat”, “Yoʻldosh” va “Manzur” navlari yaratildi. Ayni paytda ularning urugʻlari koʻpaytirilib, fermer va klasterlarga yetkazib berilmoqda.

Resurstejamkor usullar samarasi

Qishloq xoʻjaligi vazirligidan maʼlum qilishlaricha, mamlakatimizda bu yil 160,7 ming gektarda sholi

alohida eʼtiborga molikdir.

Shu bois soʻnggi besh yillikda sholichilikda shu kabi zamonaviy usullarni tatbiq qilishga davlat darajasida eʼtibor kuchaytirildi. Rasmiy hujjatlarda dastlabki bosqichda jami sholi maydonlarining kamida 20 foizida koʻchatlab ekish, 50 foizida lazer uskunasi yordamida yer tekislash tizimini joriy etish, 30 foizida sholini zamonaviy urugʻ seyalikalari orqali ekish belgilanib, ushbu raqamlarni yil sayin kengaytirib borish vazifasi qoʻyildi. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad – mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanilgan holda ichki bozorni sifatli va arzon guruch mahsulotlari bilan taʼminlash.

Importga qaramlik barham topmoqda

Yaqin-yaqingacha guruchga boʻlgan ehtiyojning katta qismi import hisobiga taʼminlanar edi. Qiyosiy maʼlumotlarga qaraganda, keyingi paytda bu boradagi manzara butkul oʻzgarmoqda. Xorijga qaramlik sekin-asta barham topib, ichki bozor oʻz mahsulotlarini evaziga toʻldirilyapti.

Eʼtibor qiling-a, agar 2023-yilda Oʻzbekiston chetdan oz emas-koʻp emas naqd 106,2 ming tonna guruh sotib olgan boʻlsa, oʻtgan yili import hajmi qariyb uch barobar kamayib, 37,5 ming tonnani tashkil etdi.

Milliy statistika qoʻmitasi mutaxassislarining fikricha, guruh importida pasayish tendensiyasi joriy yilda ham davom etyapti. Masalan, 2025-yilning yanvar – iyul oylarida 6,5 ming tonna guruh import qilindi. Buning hisobiga katta miqdorda valyuta ham tejalamoqda. Vaholanki, 2023-yilda xorijdan guruh keltirish uchun 31,7 mln. dollar, 2024-yilda 14,8 mln. dollar yoʻnaltirilgan.

Xoʻsh, bu ijobiy oʻzgarishlar zaminida nima yotibdi?

Sholiukor soha tadbirkorlarining eʼtirof etishicha, bularning barchasi eʼtibordan chetda qolgan tarmoqqa munosabat tubdan oʻzgargani, soha vakillari davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanayotgani samarasidir.

Darhaqiqat, Prezidentimizning 2024-yil 15-avgustdagi “Sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qoʻllab-quvvatlashning qoʻshimcha choratadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori soha rivoji yoʻlida navbatdagi muhim qadam boʻldi. Unda sholi yetishtirish, saqlash, qayta ishlashning uzluksiz va samarali tizimini joriy etish, ichki isteʼmol bozorini guruch mahsulotlari bilan barqaror taʼminlash, shuningdek, sohada ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish boʻyicha aniq vazifalar belgilab berildi. Ayni paytda resurstejamkor texnologiyalarni qoʻllayotgan klaster va fermerlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash mexanizmi joriy etildi. Endilikda 2025-2026-yillarda sholi ekish uchun xarid qilingan yangi urugʻ seyalikalari hamda koʻchatlab ekish uskunalari qiymatining 20 foizi Davlat byudjetidan subsidiyalor ajratish orqali toʻlab beriladi. Mamlakatdagi sholi yetkazib beruvchi asosiy hudud – Xorazm viloyatida sholichilik korxonalari faoliyatini qoʻllab-quvvatlash uchun Davlat byudjetidan qoʻshimcha subsidiyalor ajratilib, har gektar lazerli tekislangan maydonga sarflangan yonilgʻi-moylash materiallari xarajatlari 100 foiz qoplanadi.

Rosti, bu kabi koʻmak va gʻamxoʻrliklar ilgari oʻgay koʻz bilan qarab kelingan sholichilik isticqbolida yangi sahifalar ochmoqda, desak, mubolagʻa emas.

Binobarin, sholichilik agrar sohaning shunchaki bir tarmogʻigina emas, balki odamlarning kayfiyatiga taʼsir koʻrsatadigan muhim oziq-ovqat mahsuloti manbaidir. Takror boʻlsa-da, aytamiz, toʻylarimizdan tortib kichik yigʻinlarimizda ham dasturxon koʻrki osh hisoblanadi.

Toʻgʻri, bugun yurtimizda guruch taqchilligi yoʻq – bozorlarimizda mahsulot serob. Lekin bu xotirjamlikka asos boʻlmaydi. Negaki, keyingi yillarda mahsulotga boʻlgan ehtiyoj har doimgidan ortib bormoqda. Bu esa sholichilikni zamon talablari asosida rivojlantirish, resurstejamkor va innovatsion texnologiyalarni izchil qoʻllab, suv taqchilligi sharoitida moʻl hosil yetishtirish, uni sifatli qayta ishlashni chuqurlashtirishni taqozo qilaveradi.

Said RAHMON (“Xalq soʻzi”).

XORAZM TOMONLARDA

Xorazm viloyatida yoʻlboʻyi infratuzilmasini yaxshilash va obodonlashtirish orqali aholining boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazishi hamda maroqli hordiq chiqarishini taʼminlash maqsadida tunu kun ishlaydigan gastronomik koʻchalar tashkil etilmoqda. Bogʻot tumani markazidagi Sohil boʻyi koʻchasida namunaviy loyiha asosida 7/24 tartibida faoliyat olib boruvchi yengil konstruksiyali savdo hamda xizmat koʻrsatish shoxobchalari barpo qilingani ham shundan dalolat beradi.

BOGʻOTDA TURIZM VA GASTRONOMIK KOʻCHALAR



– Bu yerlar yillar mobaynida qarovsiz holatda yotgan edi, – deydi “Oqtepa” mahalla fuqarolar yigʻini raisi Umid Bobojonov. – Ezgu tashabbus bilan qisqa muddatda koʻcha obod qilindi, ajoyib dizaynga ega savdo nuqtalari, piyodalar uchun yoʻlakchalar, tungi yoritqichlar, oʻrindiqlar hududga koʻrk bagʻishladi. Koʻcha boʻylab odamlar sayr etishi, ovqatlanishi, xarid qilishi, mazmunli dam olishi uchun barcha qulayliklar yaratilmoqda.

Ushbu turizm va gastronomik koʻcha tuman aholisi hamda mehmonlarini turli madaniy va koʻngilochar tadbirlarga jalb qilish, shuningdek, tadbirkorlik loyihalarini kengaytirish va rivojlantirish istagida boʻlgan ishbilarmonlar uchun qulay maydon sanaladi.

Tumanning Yuksalish mahallasida ham yengil konstruksiyalardan qurilgan savdo va xizmat koʻrsatish shoxobchalari ish boshladi. Aholi bandligini taʼminlash va daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambagʻallikni qisqartirish maqsadida barpo etilgan mazkur hududda kitob doʻkoni, oziq-ovqat, kiyim-kechaklar doʻkonlari, goʻzallik saloni, maishiy texnikalar ustaxonasi va boshqa xizmat koʻrsatish shoxobchalari mavjud. Loyiha ishga tushishi bilan 30 nafar ishsiz yoshning bandligi taʼminlandi.

MUNOSIB EʼTIROF

Oliy taʼlim sohasidagi eng nufuzli xalqaro agentliklardan biri – “QS Quacquarelli Symonds” 2026-yil uchun “QS Sustainability Rankings – 2026” natijalarini eʼlon qildi.



Bu yilgi reyting dunyoning qariyb 2000 ta universitetini qamrab olgan boʻlib, unda Oʻzbekistonning 9 ta oliy taʼlim muassasasi munosib oʻrin egalladi. Ularning orasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ham bor.

Bu natija universitetda barqaror rivojlanish yoʻnalishida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli ishlar – ekologiya, ijtimoiy masʼuliyat, resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion loyihalar va boshqaruv tizimini takomillashtirish borasidagi izchil harakatlar samarasi hisoblanadi.

QAYTA OʻZLASHTIRILGAN YERLAR – DAROMAD MANBAI

Shovot tumanining “Boʻston Amirqum” massivida 1 500 gektar yer maydonini qishloq xoʻjaligi ekinlari ekish uchun foydalanishga qaytarish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Bu yerlarda dehqonchilik uchun, birinchi navbatda, suv taʼminoti masalasini hal qilish zarur edi. Shu maqsadda yangi kanal qazilib, betonlashtirish ishlari yakunlandi.

Ayni kunda kanalga yuqori quvvatli suv nasoslarini oʻrnatish ishlari olib borilmoqda. Mazkur loyiha tumanda qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish barobarida hudud aholisi uchun ish oʻrinlari yaratilishi bilan ahamiyatlidir.

SUVDAN TEJAB FOYDALANISHDA YANGI TAJRIBA

Xorazm viloyatida ekin maydonlarini sugʻorishda suv tejovchi texnologiyalarning yangi turi – yer ostidan oʻtuvchi tomchilatib sugʻorish tizimi tajriba tariqasida qoʻllanilmoqda. Xususan, “Dilshod” fermer xoʻjaligi 100 gektar ekin maydoniga ega boʻlib, shuning 30 gektarda suvni tejaydigan texnologiya joriy qilindi.

– Mazkur loyiha qiymati 1 mlrd. 272 mln. soʻm boʻlib, zamonaviy texnologiya qator afzaliliklarga ega, – deydi fermer Hamro Iskandarov. – Vegetatsiya davrida suvni zarur vaqtda, dalaning kerakli joyiga bir tekisda yetkazib berish imkoni mavjud. Bu hosildorlikni oshirishda muhim omil sanaladi. Eng muhimi, hosilni yetishtirish uchun sarflanadigan sugʻur miqdori, ishchi kuchi va boshqa sarf-xarajalar keskin kamayadi.

Loyihaga koʻra shinamgina dala shiyponi qurilib, unda suvchilar xonasi, omborxona, maxsus hovuz barpo etilgan. Suv nasoslarining energiya taʼminoti quyosh panellari yordamida amalga oshiriladi.

Odilbek ODAMBOYEV (“Xalq soʻzi”).

Xalqaro tajriba asosida barpo etiladigan “Service Point” majmuasi Namangan viloyatida ayni yoʻnalishdagi ilk loyiha hisoblanadi. Servis va logistika boʻyicha ushbu yirik loyiha Toʻraqoʻrgʻon tumanida Angren – Toʻraqoʻrgʻon yoʻlining hududdagi Kumidon qishlogʻidan oʻtgan qismida amalga oshirilmoqda.

Kumidonda zamonaviy majmua quriladi

– Bosh pudratchi – “Kelajakmegastroy” masʼuliyati cheklangan jamiyati bu yerda tuproq ishlarini bajarishga kirishdi, – deydi tuman hokimining birinchi oʻrinbosari Qudrat Sohaildayev. – Umumiy qiymati 50 mlrd. soʻmni tashkil etadigan loyiha kelgusi yilning uchinchi choragida nihoyasiga yetkaziladi.

Yangi barpo etilayotgan majmua doirasida yillik 100 mingdan ortiq transport vositalariga xizmat koʻrsatish quvvatiga ega boʻlgan, 7/24 tartibda ishlaydigan yuk va yengil avtomobil haydovchilari uchun zamonaviy logistika markazi,

avtoturargohlar, texnik xizmat koʻrsatish, yoqilgʻi quyish, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, zamonaviy motellar quriladi. Ularda 200 dan koʻprogʻi ish oʻrinlari tashkil etish moʻljallangan.

Aytish lozimki, “Service Point” majmuasi yoʻl yoqasi servislari, logistika va avtoturizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu loyiha haydovchi va yoʻlovchilar uchun qulaylik yaratibgina qolmay, hududning iqtisodiy salohiyatini ham oshiradi.

Qudratilla NAJMIDDINOV (“Xalq soʻzi”).



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA YO‘LIDA QAT’IY QADAM

Zamonaviy dunyoda sun'iy intellekt nafaqat texnologik yutuq, balki iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va har bir insonning kundalik faoliyatiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan global fenomenga aylanmoqda. Bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) sohasidagi yangiliklar hamda tadqiqotlar har bir mamlakatning raqobatbardoshligi va taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Nuqtai nazar

Poytaxtimizda o'tkazilgan sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro forum O'zbekiston uchun ham, mintaqa uchun ham katta ahamiyat kasb etdi. Bu mamlakatimizning raqamli transformatsiya yo'lidagi qat'iy qadami va innovatsion rivojlanishga intilishining yaqqol dalilidir.

Xo'sh, bu xalqaro forum bizga nima beradi va uning ahamiyati qanday?

Birinchidan, forum dunyoning yetakchi SI mutaxassislari, investorlar va texnologiya kompaniyalarini bir joyga to'pladi. Bu O'zbekiston uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ilg'or texnologiyalarni import qilish va mahalliy startaplar uchun yangi qirralarni ochish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan, tadbir davomida sohadaagi eng so'nggi tendensiyalar, muammolar va yechimlar muhokama qilindi. Bu O'zbekistonning yosh mutaxassislari va talabalari uchun bebaho tajriba almashish maydoni bo'ldi, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qildi.

Uchinchidan, bu kabi tadbirlar mamlakatda innovatsion ekotizimni, ya'ni ilmiy-tadqiqot markazlari, texnologik parklar va startap inkubatorlarini rivojlantirishga turtki beradi. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini mustahkamlaydi.

To'rtinchidan, forum doirasida Slni qishloq xo'jaligi, tibbiyot, ta'lim, davlat boshqaruvi va sanoat kabi sohalarda qo'llash bo'yicha istiqbolli loyihalar muhokama qilindi. Bu O'zbekistonning o'ziga xos muammolarini SI yordamida hal etishga yangi yondashuvlarni topish imkonini berdi.

Beshinchidan, O'zbekiston Markaziy Osiyoda Slni rivojlantirishda yetakchilikni qo'lga kiritishga intilmoqda. Bunday xalqaro forumlar ushbu maqsadga erishishda muhim rol o'ynaydi.

Darvoqe, Prezidentimiz Xalqaro kongress markazida sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro forum doirasida iqtidorli yoshlar bilan muloqotda axborot texnologiyalari sohasining strategik ahamiyati, uning mamlakat barqaror rivoji va raqobatbardoshligida hal qiluvchi o'rin tutayotganini alohida ta'kidlashi ham bejiz emas. Zero, unda taqdim etilgan turli sohalarga oid



innovatsion ishlanmalar O'zbekistonda shakllanayotgan zamonaviy raqamli ekotizim hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning real samarasidir.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbari startap hamda texnologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini joriy etish, ishlanmalarni milliy miqyosda amaliyotga tatbiq qilish hamda ularni xalqaro bozorga olib chiqish muhimligini ta'kidladi. Bu bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi.

Taraqqiyotning asosiy mezoni

XXI asrda axborot texnologiyalari va raqamlashtirish har bir mamlakat taraqqiyotining asosiy mezonini sifatida namoyon bo'layotganini barchamiz ko'rib-bilib turibmiz. Dunyoda sun'iy intellektga e'tibor misli ko'rimagan darajada yuqori. Bu nafaqat davlatlarning strategik rivojlanish rejalarida, balki yirik korporatsiyalarning sarmoyaviy siyosatida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Konsalting kompaniyalarining hisob-kitoblariga ko'ra, SI jahon iqtisodiyotiga trillionlab dollarlik qo'shimcha qiymat keltirish salohiyatiga ega. U ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, yangi mahsulot va xizmatlar yaratadi, logistika va resurs sarfini optimallashtiradi. SI bugungi kunda deyarli barcha sohalarni o'zgartirmoqda. Tibbiyotda kasalliklarni erta tashxislash, dori vositalarini ishlab chiqish va shaxsiylashtirilgan davolash rejalarini tuzishda, moliyada firibgarlikni aniqlash, risklarni baholash hamda investitsiya qarorlarini qabul qilishda, transportda avtomobillar va logistikani optimallashtirishda, ta'limda o'quv jarayonlarini individuallashtirish va yangi ta'lim kontentlarini yaratishda, qishloq xo'jaligida hosildorlikni

oshirish, suv va resurslarni tejashda ishlatilmoqda.

Bugungi kunda sun'iy intellekt endilikda faqat ayrim tor sohalarning imtiyoz bo'lib qolmay, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, davlat boshqaruvi tizimi va hatto kundalik yashash tarzimizga chuqur kirib kelayotgan fundamental omilga, hayotiy zaruratga aylanmoqda. Bu global tendensiyadan O'zbekiston ham chetda qolmayapti, aksincha, bu yo'nalishda faol qadamlar tashlab, yangi raqamli Rennessans davrining boshlanayotgani ko'zga yaqqol tashlanayotir.

O'zbekistonning boy ilmiy merosi bugungi kunning raqamli taraqqiyotiga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Birinchi va ikkinchi Rennessans davrlarida keng nom ovozongan buyuk olimlar – Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek kabi ajdodlarimizning algoritim, matematika va mantiq fanlari ravnaqiga qo'shgan munosib hisssasi hozirgi sun'iy intellekt rivoji uchun asos solishda qatnashgan, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Ularning ilmiy kashfiyotlari zamonaviy dasturlash va intellektual tizimlarning nazariy asosini tashkil etadi. Ana shu bebaho merosning munosib davomchilari sifatida mamlakatimiz eng ilg'or, zamonaviy texnologiyalarga ochiq bo'lishi, uni taraqqiyotimizning kuchli tayanchiga aylantirishi zarurligini anglamoqda. Bu nafaqat tarixiy adolat, balki kelajakka qaratilgan strategik yo'nalishdir. Bu maqsad yo'lidagi O'zbekiston sun'iy intellekt transformatsiyasini amalga oshirish uchun ilk qadam sifatida dunyodagi yetakchi davlatlarning eng ilg'or tajribasi asosida Milliy strategiya qabul qilib, uni hayotga faol tatbiq etib kelmoqda.

Mazkur strategiya Slni milliy iqtisodiyot va davlat boshqaruvining barcha sohalariga integratsiya qilishni nazarda tutadi. Ushbu strategiyaning samarasi o'laroq, qisqa muddatda salmoqli yutuqlarga erishildi. Avvalo, mamlakat yalpi ichki mahsulotida raqamli iqtisodiyotning ulushi ikki karraga oshib, sezilarli taraqqiyotini ko'rsatdi. Bu – raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotga kiritilishi natijasida erishilgan muhim ko'rsatkich.

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yo'nalishiga qariyb 2 mlrd. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etildi, bu esa sohaga bo'lgan ishonch va uning salohiyatidan dalolat beradi. Mamlakatimizda AT xizmatlari eksporti hajmi o'tgan yillarga nisbatan 4,5 karra o'sib, 1 mlrd. dollarga yaqinlashdi. Bu raqamlar ushbu

sohadagi islohotlarning natijadorligini yaqqol tasdiqlaydi va O'zbekistonning mintaqaviy AT-xabga aylanish salohiyatini ko'rsatadi.

Kuni kecha ilk bor ingliz huquqiga asoslangan maxsus rejimda faoliyat yuritadigan Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi tashkil etilgani ham sohaga xalqaro standartlarni joriy etishga bo'lgan intilishni ko'rsatadi. Bu markaz innovatsiyalarni rag'batlantirish va xorijiy kompaniyalar uchun jozibador muhit yaratishga xizmat qiladi.

Raqobatbardosh kadrlar bazasi yaratilmoqda

Kadrlar tayyorlash borasida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. AT sohasida ta'lim berayotgan oliy ta'lim muassasalari qariyb 3 baravarga oshib, 145 taga, talabalar soni esa 80 ming nafarga yetdi. Bu esa kelajakdagi raqamli iqtisodiyot uchun mustahkam va raqobatbardosh kadrlar bazasini yaratishga xizmat qiladi. Ushbu yutuqlar O'zbekistonning sun'iy intellekt asrida nafaqat kuzatuvchi, balki faol ishtirokchi, ilg'or yechimlarni joriy etuvchi davlat sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Buyuk ajdodlarning ilmiy merosini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirgan holda, O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yarmoqda. Sun'iy intellektga yo'naltirilgan ushbu strategik yondashuv mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish va global raqamli landshaftda munosib o'rin egallash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini hayotning barcha jabhalariga joriy etish, yoshlarni bu sohaga keng jalb qilish mamlakatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bir paytda xorijiy davlatlar bilan qator loyihalar amalga oshirilayotganini eslab o'tish maqsadga muvofiq. Bu boradagi eng muhim tashabbuslardan biri Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda 2019-yilda boshlangan "Bir million dasturchi" loyihasidir. Ushbu loyiha doirasida ikki milliardon

Sun'iy intellekt ekotizimini barcha sohalarda joriy etish maqsadida kelgusi yil AQSHning "Nvidia" kompaniyasi bilan hamkorlikda katta superkompyuter klasteri ishga tushiriladi. Bu O'zbekistonni nafaqat zamonaviy texnologiyalar iste'molchisi, balki ularni yaratadigan, eksport qiladigan va global miqyosda raqobatlasha oladigan davlatga aylantirishga qaratilgan muhim qadamdir.

Umuman, yurtimiz mezbonlik qilgan xalqaro forum O'zbekistonning raqamli kelajakni qurishdagi qat'iyyatining muhim belgisidir. Mamlakatimizning bu yo'nalishdagi faol sa'y-harakatlari jamiyat taraqqiyoti va xalqaro maydondagi mavqeiini yanada mustahkamlaydi.

Baxtiyor MAHKAMOV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ortiq yoshlarimiz zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, raqamli kelajakni qurish uchun asosli poydevor yaratdi.

Shuningdek, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 100 ga yaqin iqtidorli yoshlarimiz dunyoning yetakchi universitetlarida sun'iy intellekt va boshqa ilg'or AT yo'nalishlarida tahsil olmoqda. Ular yurtimizga qaytgach, sun'iy intellektning eng so'nggi yutuqlarini ta'lim, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi tizimiga joriy etishda yetakchi kuchga aylanishi kutilmoqda. Sun'iy intellektni ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. O'qituvchilarni qayta tayyorlash, maktab va universitetlarda soha bo'yicha savodxonlikni oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu kelajak avlodni raqamli davr talablariga mos ravishda tayyorlash imkonini beryapti.

Innovatsion ekotizim jozibasi

Bu hali hammasi emas. Mamlakatda AT sohasidagi innovatsion ekotizim ham sezilarli darajada rivojlandi. So'nggi yillarda startaplar soni o'n baravar oshib, umumiy hisobda 300 mln. dollar investitsiya jalb qilindi. Bu esa O'zbekistonning yosh tadbirkorlar va innovatorlar uchun jozibador maydonga aylanayotganini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar O'zbekistonning raqamli kelajakni qurish, sun'iy intellekt va innovatsiyalarni hayotning barcha jabhalariga muvaffaqiyatli joriy etish yo'lidagi qat'iyyati va salohiyatini namoyon etadi. O'z navbatida, bu sa'y-harakatlar mamlakatning global raqamli maydonda o'z o'rnini mustahkamlashga xizmat qilishi, shubhasiz.

Xorijiy ekspertlarning prognozlariga ko'ra, kelgusi besh yil ichida sun'iy intellekt texnologiyalari O'zbekiston iqtisodiyotida kamida 10 mlrd. dollarlik qo'shimcha qiymat yaratadi. Mamlakatimiz rahbari bunday yuksak ko'rsatkichlarga erishish uchun barcha zarur asoslar va imkoniyatlarga ega ekanligini e'lon qildi. O'zbekiston 2030-yilga qadar AT xizmatlari eksportini 5 mlrd. dollarga yetkazish, shuningdek, sohada yetishib chiqadigan millionlab yoshlar uchun yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratishni maqsad qilgan. Bu maqsadlar uchun 100 mln. dollar ajratilib, ushbu mablag' katta rejalar ijrosini ta'minlashga yo'naltiriladi.



“PREZIDENT OLIMPIADASI”: OG‘IR ATLETIKA BAHSLARI G‘OLIBLARI MA‘LUM

“Prezident olimpiadasi”ning erkaklar o'rtasida kechgan eng og'ir vazn toifasidagi bellashuvlar qiziqarli kechdi. Yuqori darajada tashkil etilayotgan “Prezident olimpiadasi”ning ushbu dasturiga asosan og'ir atletika bo'yicha 2 ta vazn toifasidagi bellashuvlar, shuningdek, boks bo'yicha saralash janglari o'tkazildi.



Yakuniy natijalarga ko'ra, 102 kilogrammgacha vazn toifasida 1-o'rinni Elbek Idiyev (Buxoro), 2-o'rinni Abbosbek Ahrolov (Namangan) va 3-o'rinni Behzodbek Berdiyev (Toshkent viloyati) egalladi. Shuningdek, 102 kilogrammdan ortiq vazn toifasi bo'yicha 1-o'rin Hasanboy Xolmuratov (Toshkent viloyati), 2-o'rin Orazbay Haitov (Qoraqalpog'iston Respublikasi)ga nasib etgan bo'lsa, kuchli uchlikni Otabek Jumayev (Surxondaryo) band qildi.

“Prezident olimpiadasi” musobaqalari qizg'in ruhda davom etmoqda.

FUTBOL: SUPERLIGANING NAVBATDAGI MAVSUMI YAKUNLANDI

Futbol bo'yicha O'zbekiston superligasining 2025-yilgi mavsumi nihoyasiga yetdi.



Ortida qolgan 30 tur yakuniga ko'ra, Farg'onaning "Neftchi" jamoasi uzoq yillik tanaffusdan keyin yana bir bor chempionlikni qo'lga kiritgan bo'lsa, "Paxtakor" kumush, "Nasaf" esa bronza medallari bilan taqdirlandi.

Eslatib o'tamiz, “Xorazm”, “Buxoro”, “Mash'al” va “Qo'qon-1912” o'tish o'yinlarida qatnashadi. “Sho'rtan” jamoasi ligani tark etdi.

GANDBOL: JAHON CHEMPIONATI YO‘LLANMASI – O‘SMIRLARIMIZDA

Tailandning Pattaya shahrida gandbol bo'yicha “Trophy” kubogining Osiyo mintaqasi bo'ylab o'tkazilgan qizlar o'rtasidagi bellashuvlari nihoyasiga yetdi.



Biz uchun ahamiyatlisi shundaki, ushbu musobaqada ishtirok etgan O'zbekiston "U17" terma jamoasi barcha raqibini mag'lub etib, oltin medalni qo'lga kiritdi. Hamyurtlarimiz final bellashuvida Hindiston jamoasini 40:33 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. Ushbu g'alaba evaziga mazkur jamoamiz kelasi yil 18 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasidagi jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Ma'lumot uchun, bundan avval o'tkazilgan "U19" toifasidagi bellashuvlarda ham yurtdoshlarimiz bosh sovrin hamda mundial yo'llanmasiga ega chiqqan edi.

“Xalq so‘zi”.

Chekka qishloqda “AT-shaharcha” faoliyatini boshladi

Yurtimiz yoshlarida zamonaviy fanlarni, dasturchilik, dizaynerlik, xorijiy tillarni o'rganishga ishtiyoq katta. G'ijduvon tumanidagi chekka go'shalardan biri sanalgan Oqrabot qishlog'ida o'tkazilgan o'ziga xos so'rovnomaga ham xuddi shuni ko'rsatdi. Tuman markazidan chamasini 18 kilometr uzoqlikdagi mazkur qishloq va yon-atrofdagi mahallalarda yashovchi yetti ming nafardan ziyod o'g'il-qizlar aynan shu yo'nalishlarda saboq olish istagini bildirdi.

Qulaylik

Yoshlarning talab-istagidan kelib chiqib, “AT-shaharcha” barpo etildi. Maskanda navqiron avlod vakillari zamonaviy fan sirlarini bepul o'rganibgina qolmay, AT xizmatlari ko'rsatish, frilanserlik bilan shug'ullanish, startaplar tayyorlash borasida ma'lum ko'nikmalar hosil qiladi.

– Raqamli texnologiyalarni chuqur o'zlashtirish ko'p jihatdan xorijiy tilni bilishga bog'liq, – deydi “AT-

shaharcha”da yoshlarga saboq berayotgan ingliz tili o'qituvchisi Sitora Muzaffarova. – Shogirdlarimiz buni yaxshi anglagan holda til o'rganish mashg'ulotlarida faol qatnashmoqda. Jamoamiz o'ziga bildirilgan ishonchni oqlaydi, albatta.

Bu yer bir mavsumda 180, yil davomida esa 700 nafardan ko'proq o'g'il-qizlarni qamrab olish imkoniyatiga ega.

Istam IBROHIMOV
 (“Xalq so'zi”).

2026-yilda “Yashil makon” xarajatlariga 250 mlrd. so‘m ajratilishi ko‘zda tutilmoqda.

Xalq so‘zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi Kengashi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan.Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 10 552 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan.Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;

e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2030-6788

4772030 678001

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir S. Mamirov.

Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6